

Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!



Postda На посту

O'zbekiston
Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi
nashri

2025-yil 31-iyul
payshanba

№ 31 (4725)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI PREZIDENTINING ФАРМОНИ

БИР ГУРУХ ДАВЛАТ ХИЗМАТЧИЛАРИНИ МУКОФОТЛАШ ТЎҒРИСИДА

Мамлакатимиздаги туб ислохотлар ва давлат дастурлари ижросини муваффақиятли амалга ошириш, Асака туманининг ижтимоий-иқтисодий тараққиётини юксалтириш борасидаги катта хизматлари, ўзининг бой билим ва тажрибаси, ташкилотчилик ва ташаббускорлик қобилияти билан ҳудудлар инфратузилмасини такомиллаштириб, «Ислохотлар штаби» фаолиятини самарали йўлга қўйганлиги, халқимиз манфаатларини рўёбга чиқариш, аҳоли тинчлиги ва фаровонлигини таъминлаш ишларига қўшган муносиб ҳиссаси учун қуйидагилар мукофотлансин:

«Дўстлик» ордени билан

Мўминов Насибулла Набиевич – Андижон вилояти Асака тумани ҳоқими

Рахимов Илхомжон Гуламович – Андижон вилояти Асака тумани солиқ инспекцияси бошлиғи

«Жасорат» медали билан

Мирзакаримов Акмалжон Дилмурадович – Андижон вилояти Асака тумани прокурори

Назиров Шохрухбек Холмухамедович – Андижон вилояти Асака тумани ички ишлар бўлими бошлиғи

«Шухрат» медали билан

Набиев Фарход Кабулжанович – Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрациясининг масъул ходими

Ўзбекистон Республикаси
Президенти

Ш. МИРЗИЁЕВ

■ JAҲОН CHEMPIONATI

Voleybol – bu shunchaki sport turi emas. Bu – sog'lom avlod, kuchli irodalilarni bir-lashtiruvchi jamoaviy sport turi.

O'zbekiston dunyo voleyboli tarixida yangi sahifa ochmoqda. Mamlakatimizda ilk bor «FIVB Volleyball Boys' U19 World Championship» ja-hon chempionati o'tkazilmoqda. Bu musobaqa yosh voleybolchilar o'rtasida o'tkaziladigan eng nufuzli turnir hisoblanib, O'zbekiston sporti, ayniqsa, voleybolning xalqaro miqyosdagi o'rnini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

SPORTIMIZ TARIXIDA YANGI SAHIFA



HAR SO'ZIDA HAYOT NAFASI

Toshkent shahar IIBB Davolash-profilaktika muassasalari tibbiyot bo'limi poliklinikasining terapiya bo'linmasi shoxobcha oilaviy shifokori Muhiba Hasanova.



12-13

15



**General-mayor
Aripov Toxir
Tulkinovich**
Samarqand viloyati IIB
boshlig'i lavozimiga.

TAYINLANDILAR



**Polkovnik
Abdurazzoqov
Abdusosif
Abdulkhayevich**
Toshkent viloyati IIBB
boshlig'i lavozimiga.

INSON QADRI UCHUN

MUROJAATLAR ORTIDA MUAMMOLAR BOR

ularni ijobiy hal etish – muhim vazifa

Davlat organiga fuqarolar ularni qiynab kelayotgan muammolari bilan murojaat qilishadi. Qashqadaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasiga kelib tushgan murojaatlar mazmunan turli xil. Ularda asosan mol-mulk va pul mablag'ini olib qo'yish yoki qaytarmaslik, oila-turmush doirasidagi kelishmovchiliklar, surishtiruv va tergov harakatlari, ma'muriy jarimalarni kamaytirish, kiberjinoatchilik kabi masalalar haqida so'z boradi. Shu bilan birga, ko'rsatilgan yordam uchun minnatdorlik bildirilgan murojaatlarning borligi kishini quvontiradi.



Viloyat IIB Tashkiliy boshqarmasi murojaatlar bilan ishlash guruhiga joriy yilning o'tgan davrida har xil mazmundagi 12 mingdan ortiq murojaatlar kelib tushgan. Ularning 7030 tasi qanoatlantirildi, 31 foiz murojaat mualliflariga huquqiy tushuntirishlar berildi. Vaqt va mablag' talab etadigan 10 foiz murojaat esa nazoratga olinib, ijroga qaratildi. O'tgan yilning shu davriga qiyoslanganda, murojaatlar soni deyarli 31 foizga kamaygan.

O'tgan davrda viloyat IIB rahbariyati tomonidan o'tkazilgan sayyor qabullar jarayonida 19 ta murojaatga joyida ijobiy yechim topildi, 27 nafar murojaatchiga asoslantirilgan huquqiy tushuntirish berildi, qolganlari esa ijroga qaratilib, mas'ullarga hal etish vazifasi topshirildi.

Yakkabog' tumanida o'tkazilgan sayyor qabulda «Sherozi» mahallasida yashovchi fuqaro Ro'zigul Nosirova tikuvchilik bo'yicha o'quv kursini tamomlaganini bildirib, tikuv mashinasi olib berilishida amaliy yordam ko'rsatilishini so'radi. Ushbu murojaat joyida hal etilib, ayolga tikuv mashinasi topshirildi.

Albatta, bu kabi misollarni yana keltirish mumkin. Lekin takroriy va qonuniy muddatlarni kutmasdan, qayta-qayta murojaat qiluvchilar ham uchraydi. Bu toifa fuqarolarga huquqiy tushuntirishlar beriladi. Ayrim murojaatlar tegishliligi bo'yicha vakolatli organlarga yuboriladi.

Ural MAHMUDOV,
mayor.

Qashqadaryo viloyati.

BITIRUV

YANGI KUCH, ISHTIYOQ BILAN



IIV Malaka oshirish institutining boshlang'ich kasbiy tayyorgarlik o'quv kurslarida tahsil olgan tinglovchilarning bitiruv marosimi bo'lib o'tdi.

– Tasdiqlangan o'quv dasturi asosida yuridik, kasbiy, ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy, jangovar va jismoniy tayyorgarlik bo'yicha mashg'ulotlar o'tildi, – deydi tinglovchi, safdor Husanjon Maniyazov. – Fuqarolarga xizmat ko'rsatish, turli qaltis vaziyatlarda ruhiy barqaror bo'lish, tezkor va to'g'ri qaror qabul qilish, qonun doirasida jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni qo'llash, o'qotar qurollardan foydalanish bo'yicha ko'nikmalarimiz shakllandi.

Olgan bilim va ko'nikmalarimizni kelgusida ona Vatanimiz osoyishtaligi, xalqimizning tinchligi, fuqarolarimizning huquqlarini himoya qilishga safarbar etamiz.

Tantanali tadbirda o'quv dasturlari talablarini to'liq o'zlashtirgan, yakuniy sinov imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirgan tinglovchilarga sertifikatlar topshirilib, o'quv kursi davomida yuqori ko'rsatkichlarga erishgan bir guruh tinglovchilar faxriy yorliq bilan taqdirlandi.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.



SOHA FIDOYISI

«YANGIOBOD» ENDI «QIZIL» DA EMAS...

To'raqo'rg'on tumanidagi «Yangiobod» mahallasi o'tgan yilni «qizil» toifa bilan yakunlagan edi. Ushbu hududga birlashtirilgan tuman IIB JXX Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limi inspektori, podpolkovnik Baxtiyor Tojiboyev bundan o'ziga tegishli xulosa chiqarib, astoydil ishga kirishdi. Xonadonma-xonadon o'rganishda ishsiz, uzoq muddatga xorijga ketgan 96 nafar fuqaro ro'yxatini shakllantirdi. Tushuntirishlar natijasida 25 nafar fuqaro yurtga qaytdi. Ularning 7 nafariga oylik maoshi yuqori bo'lgan ishlar taklif etildi. Muqaddam sudlanganlar, probatsiya nazoratida turgan fuqarolar bilan mustahkam aloqa o'rnatdi. 6 nafar nazoratdagi shaxs tumanidagi xususiy firmalarga ishga joylashtirildi.



Hududda osoyishtalikni ta'minlashda videokuzatuv kameralarining ahamiyati katta. Aprel oyida 10 ta ko'chani kirish-chiqish joylariga videokameralar o'rnatilib, profilaktika inspektorining xizmat xonasiga integratsiya qilindi.

Jinoyatchilikning oldini olishda va sodir etilganlarini «issiq izida» fosh etishda kuzatuv kameralari katta yordam beradi. Chunki kameralar hududga kelib-ketgan fuqarolar, avtomashinalarni ham yozib oladi. Bu esa jinoyatlarni fosh etishda muhim omil bo'lmoqda, – deydi Baxtiyor Tojiboyev.

Mahalla doim gavgum. Savdo markazlari,

avtoshohbekat, davlat idoralari, oliy ta'lim muassasasi, istirohat bog'i, maktab, bog'cha, shifoxona va 3 ta ko'p qavatli uy shu yerda joylashgan. Bu profilaktika inspektori zimmasiga mas'uliyat yuklaydi.

Olti oy yakuniga ko'ra, mahallada jinoyat sodir etilmadi. Bu ko'rsatkichga tun-u kun qilingan mehnat va tinimsiz izlanish tufayli erishildi.

Razm solib kuzatsangiz, qaysi hududda profilaktika inspektori yaxshi ishlasa, natija darhol ko'zga tashlanadi. Buni «Yangiobod»ni jinoyatdan xoli hududga aylantirishda ter to'kib ishlagan Baxtiyor Tojiboyevning sa'y-harakati misolida ko'rish mumkin.

Profilaktika inspektorini yo'qlab borganimizda, u ichkilikbozlikka ruju qo'ygan fuqarolar bilan xizmat xonasida suhbat o'tkazayotgan ekan.

Bir nafari majburiy davolanishdan so'ng sog'lom hayotga qaytdi. Oilasidagi janjallar ham barham topdi. Ikkinchisining esa o'rgangan odatidan voz kechishi juda qiyin kechyapti. Olti oyni o'tkazib olsa, marra bizniki, endi ikki yarim oy o'tdi, – deydi voqelikni izohlarkan. Shifokorlar ham spirtli ichimlik jigarga o'z ta'sirini o'tkazganini aytgan. Davolanishdan so'ng fuqaro asta-sekin sog'lom hayotga moslashyapti.

Ha, xodimning zimmasida ana shunday mashaqqatli vazifalar ko'p. Mahalla fuqarolar yig'ini raisi Zulfiya Ibrohimova, xotin-qizlar faoli Fotima Umarova va tajribali nuroniylar ko'magida 6 ta oilaviy ajralish bartaraf etildi. Yoshlar yetakchisi Mirzaakbar Mirzaturg'unov bilan hamkorlikda mahallada sport musobaqalari tashkil etib kelinmoqda.

Baxtiyor Tojiboyev 25 yildan buyon kinologiya, patrul-post xizmati va huquqbuzarliklar profilaktikasi kabi turli sohaviy xizmatlarda namunali faoliyat olib bordi.

Qahramonimiz turmush o'rtog'i Nodira Tojiboyeva bilan ikki farzandni tarbiyalab, kamolga yetkazmoqda. O'g'li Behruzbek Turg'unaliyev ota kasbini davom ettirmoqchi. Hozirda u IIV Namangan akademik litseyi o'quvchisi, Sevinchoy esa 6-sinf o'quvchisi.

Baxtiyor kabi el tinchligini saqlashga munosib hissa qo'shib kelayotgan profilaktika inspektorlari haqiqiy ma'noda bugungi kunning qahramonlari va ular hurmatga munosibdirlar.

**Gulchehra
BUVAMIRZAYEVA,
o'z muxbirimiz.**

Namangan viloyati.

MUSTAQILLIK TENGDOSHLARI

Sirdaryo viloyati IIB JTSB Kinologiya bo'limi inspektori, safdor Eldor G'aniyev «Rita» laqabli xizmat iti bilan giyohvandlik o'simliklarini yetishtirish bilan bog'liq jinoyat holatni fosh etdi.

MUVAFFAQIYAT SIRI



...Guliston shahrida o'tkazilgan profilaktik tadbir vaqtida «Sayqal» mahallasidagi xonadonlardan birida, hovlida parvarishlangan gullar avvaliga ko'pchilikning e'tiborini tortmadi. Tadbirda qatnashayotgan «Rita» esa o'zini noxush tuta boshladi. Eldor xizmat iti yordamida izlanish o'tkazdi. Natijada gullar orasida 11 tup kannabis-marijuana o'simligi yashirin tarzda yetishtirilayotgani aniqlandi.

Safdor Eldor G'aniyev – istiqbol tengdoshi. U 1991-yili Sardoba tumanida tug'ilgan. Maktabni tugatib, Toshkent moliya kasb-hunar kollejida tahsil olgan. 2016-yildan beri ichki ishlar organlari tizimida. Kinologik kasbini o'rganishida katta serjantlar – Bahrom Ergashev va Alisher Omonov unga ustozlik qildi. Xizmat jarayonida yosh xodim tushundiki, kinologik oddiy kasb emas. Jinoyat sodir bo'lganidan qancha ko'p muddat o'tsa, fosh etish imkonini shuncha kamayadi. Shuningdek, atrof-muhit, shamol, yomg'ir, qor kabi omillar salbiy ta'sir ko'rsatadi. Qolaversa, it ham tirik jon, ular

ham mehrga tashna. Har birining o'ziga xos xarakteri bor. Kinolog itni o'rgatayotganida mana shu omillarni e'tiborga olsagina, natijaga erishi mumkin. Safdor Eldor G'aniyevning muvaffaqiyatlari siri aynan mana shu jihatlarni e'tiborga olganiga borib taqaladi.


Tajribali kinologga uchta zotdor it birlashtirilgan. Har birining o'ziga xos vazifasi bor: «Rita» giyohvandlik moddalarini topishga, «Agat» portlovchi jismlarni fosh etishga, «Dik» jinoyatchining izidan tushishga o'rgatilgan. Berilgan vazifaga qarab ulardan biri bilan belgilangan manzilga boradi.

Eldor G'aniyev o'z ustida ishlashdan to'xtamaydigan xodimlardan. U hozir IIV Akademiyasining sirtqi bo'limi ikkinchi kurs talabasi. Shu bilan birga, baxtli oila sohibi. Turmush o'rtog'i bilan 3 nafar farzandni voyaga yetkazmoqda.

**Abdurahmon
MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.
Abu KENJAYEV
olgan surat.**

Sirdaryo viloyati.

TUMAN IIB FAOLIYATIDAN



SHO'RCHI – Surxondaryo viloyatining madaniy jihatdan boy qadimiy tumanlaridan biri. 1935-yilda tashkil etilgan, ma'muriy markazi – Sho'rchi shaharchasi.

Manbalarda «Sho'rchi» nomi geografik va iqlim sharoiti bilan bog'liq ekani, ya'ni, hududdagi suv manbalari sho'r bo'lgani sababli shu nom berilgani aytilgan.

Tuman hududidan eramizdan avvalgi va keyingi davrlarga oid arxeologik topilmalar, tarixiy yodgorliklar topilgan. Chunonchi, Dalvarzintepa tumanda joylashgan mashhur arxeologik yodgorliklardan biri hisoblanadi.

Eramizdan avvalgi III asrdan eramizning III asrigacha bo'lgan davrni qamrab olgan mazkur yodgorlik buddaviylik madaniyati, yunon-baqtriya va kushonlar davriga oid tarixiy ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan. Bu joyda qadimiy shahar qoldiqlari, ibodatxonalar, ustaxonalar, turli hunarmandchilik buyumlari topilgan. Eng muhim topilmalar – oltin budda haykali, turli tillarda yozilgan epigrafik yozuvlar va tangalardir.

IJTIMOIY HIMOYA – AMALDA



Sho'rchi tumani Ichki ishlar bo'limida ma'naviy-ma'rifiy ishlarga IIB boshlig'ining o'rinbosari, podpolkovnik Sirojiddin Nizamov boshqosh. Uning rahbarligida har bir xodimning yashash xonadoniga borilib, ularning sharoitlari o'rganilib, yakka tartibdagi profilaktik suhbatlar o'tkazilyapti.

– Ijtimoiy ahvoli og'ir, shuningdek, nizoli oilalar borligi aniqlanib, ularga yaqindan ko'mak berilyapti, – deydi biz bilan suhbatda u. – Xodimlar qo'l

jangi bilan mukammal shug'ullanishi uchun alohida murabbiy ajratilgan bo'lib, haftada 2 kun mashg'ulotlar olib boriladi. Bu xodimlarning jismoniy chiniqishiga yordam beryapti.

Oyda bir marta kitob yarmarkasi tashkillashtirilib, «Zakovat», «Uch avlod uchrashuvi» kabi tadbirlar o'tkazilyapti.

Joriy yilda 2 nafar xodimga ko'p qavatli uylardan xonadon olishida yaqindan ko'mak berilib, uying boshlang'ich to'lovi to'lab berildi.

24/7 VAQT REJIMIDA



Tuman IIB Tashkiliy bo'linmasi navbatchilik qismi 24/7 vaqt rejimida fuqarolarning murojaatlarini qabul qiladi. Ba'zan, favqulodda holatlarda navbatchi xodimning tezkor va oqilona harakati kimlarning hayoti saqlab qolinishiga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday voqeada qismdagi navbatchi yordamchisi vazifasida faoliyat olib borayotgan safdor Bahrom Shaymardonov 2 nafar fuqaroning hayotini saqlab qoldi. Shoshilinch qo'ng'iroqdan keyin tumandagi markaziy ko'chalardan birida avtohalokat sodir bo'lgani haqidagi xabarni

eshitgan Bahrom Shaymardonov zudlik bilan avval Favqulodda vaziyatlar bo'limiga xabar qildi. Natijada Favqulodda vaziyatlar bo'limi xodimlari voqea joyiga yetib borib, avtohalokatga uchragan mashina ichida qisilib qolgan fuqaronlarni chiqarib olishdi. Shuningdek, navbatchining xabari bilan voqea joyiga yetib borgan tergov-tezkor guruhi holatni nazoratga oldi.

Navbatchilik qismida Bahrom Shaymardonov kabi fidoyi, o'z kasbiga sadoqatli xodimlar mehnat qilayotgani kishini quvontiradi, albatta.

ISHNING KO'ZINI BILADI




Tajribali profilaktika inspektori, kapitan Eldor Jumaboyev ichki ishlar organlarida 2017-yildan beri faoliyat ko'rsatmoqda. U o'tgan davrda «Xayrabod», Ibn Sino, «Katta sovur», «Baxshitepa» kabi o'ndan ortiq mahallalarda xizmat olib bordi. Qaysi mahallada tartib biroz og'gan yoki «qizil» toifaga tushgan bo'lsa, uning sa'y-harakati bilan darrov hududda tartib-intizom o'rnatiladi. Shuning uchun ham ishning ko'zini biladigan profilaktika inspektorining

faoliyat yuritadigan hududi tez-tez almashtiriladi.

Tumandagi «Navro'z» mahallasiga katta inspektor etib tayinlanganida mahalla «qizil» toifada edi. 3541 nafar fuqaro istiqomat qiladigan mahalla tuman markazida joylashgan, bu yerda o'ndan ortiq davlat tashkilotlari, 14 ta umumiy ovqatlanish joyi, 2 ta tungi klub mavjud. Shu bois doim odamlar bilan gavjum.

Birinchi navbatda, hududning kirish-chiqish joylari va asosiy ko'chalariga 60 ga yaqin kuzatuv kameralari o'rnatildi. 25 ta SOS tugmasi qo'yildi. Tungi patrullik xizmati tashkil etildi. Buning natijasida mahallada huquqbuzarlik va jinoyatlarning soni keskin kamayishiga erishildi.

– Odamlar bilan tez-tez suhbat qilib, profilaktika ishlarini doimiy ravishda olib borishga harakat qilaman, – deydi lavhamiz qahramoni. – Nizolashgan oilalar, fuqarolar o'rtasidagi muammolar ijobiy yechim topishiga ko'maklashaman. Chunki ko'pincha o'zaro kek saqlab yurish, alamzadalik oqibatida jinoyat sodir etilishi mumkin. Buning oldini olish kerak.

XOLISLIK VA
MAS'ULIYAT

Tuman IIB huzuridagi Tergov bo'linmasi surishtiruvchisi, leytenant Javlon Salomqulov xizmat faoliyatini boshlaganiga ko'p vaqt o'tmagan bo'lsa-da, qisqa fursatda o'zini mas'uliyatli, halol va intizomli xodim sifatida namoyon etishga ulgurdi. Uning teran fikrlashi, ishga vijdonan yondashishi va qonun ustuvorligini ta'minlashga bo'lgan sadoqati hamkasblari orasida e'tirof etilmoqda.

Javlon Salomqulov, ayniqsa, avtohalokatlar, o'g'rilik, tan jarohati

kabi jinoyat holatlar bo'yicha olib borilayotgan surishtiruv jarayonlarida o'z salohiyatini namoyon etib kelmoqda. U har bir ishga jiddiy yondashadi, holatni chuqur tahlil qiladi va xolislik asosida xulosa chiqarishga intiladi.

Bugungi kunda Javlon kabi yosh va istiqbolli xodimlar ichki ishlar organlari tizimida yurtimiz tinchligi, jamiyat xavfsizligi va fuqarolar manfaatlarini himoya qilishda muhim o'rin tutadi.

Sahifa materiallarini Surxondaryo viloyati bo'yicha o'z muxbirimiz Feruza RAHMONQULOVA tayyorladi.

САМАРКАНДСКАЯ ОБЛАСТЬ



С ЗАБОТОЙ О ЗДОРОВЬЕ

В 1959 году на первом этаже приспособленного здания начал работу медицинский пункт УВД области. Со временем на его базе был создан Медицинский отдел, начали функционировать поликлиника с кабинетами физиотерапии, дневной стационар. Позже были открыты специализированные лаборатории, в том числе лаборатория по диагностике ВИЧ-инфекции и вирусных гепатитов, оснащенные необходимыми анализаторами для иммунохимических исследований и диагностики инфекционных заболеваний.

Сегодня подразделение – одно из наиболее крупных в ведомственной системе здравоохранения, обеспечивающих потребности в медицинской помощи, санитарно-противоэпидемическом обеспечении, военно-врачебной экспертизе и медико-психологической диагностике. Отделом налажена система непрерывного повышения профессионального мастерства сотрудников. Происходит постоянный обмен

ветераны сферы. Здесь имеется оборудование, позволяющее осуществлять цифровую рентгенографию, УЗИ и др. В целях обеспечения мобильности в распоряжении сотрудников несколько служебных автомобилей.

Пациенты доверяют специалистам поликлиники. С начала года количество посещений составило порядка 69 тысяч. Они проходят здесь обследование, получают квалифицированные



опытом с врачами областного Управления здравоохранения, городских и районных медицинских объединений, специалисты регулярно проходят курсы в учреждениях повышения квалификации врачей Министерства здравоохранения республики.

В поликлинику ежедневно обращаются свыше 250 сотрудников органов внутренних дел, иных правоохранительных органов, члены их семей и

консультации, направления в санаторно-курортные учреждения, проходят лечение в дневном стационаре.

Медицинские работники нацелены на своевременное и эффективное проведение оздоровительных мероприятий, ибо раннее выявление заболеваний и их профилактика – путь к сохранению здоровья.

Замира БАЛТАЕВА,
соб. корр.

НЕТ НАРКОТИКАМ!

ЛЕГКИЕ ДЕНЬГИ — СЕРЬЕЗНЫЕ ПОСЛЕДСТВИЯ

В рамках проводимого мероприятия «Безопасная и здоровая страна» сотрудники УКД ОВД Чиланзарского района города Ташкента задержали гражданина, занимавшегося расклейкой объявлений с рекламой наркотиков и нарко-граффити. Как выяснилось, молодой человек получал за это денежное вознаграждение.

По словам задержанного, он искал подработку и случайно вышел на некоего Карима в мессенджере Telegram. Тот предложил клеить объявления, наносить граффити, обещая оплату за каждое размещение. Получив шаблон, гражданин приступил к выполнению задания – размещал объявления на столбах и отправлял фотографии Кариму в подтверждение. Однако, как утверждает сам задержанный, когда понял, что речь идет о рекламе наркотиков, он немедленно прекратил сотрудничество и заблокировал контакт.



Особое беспокойство вызывает то, что задержанный ранее уже привлекался к уголовной ответственности по ст. 169 УК Республики Узбекистан. Судя по всему, прошлый опыт не стал для него уроком. Желание быстро заработать и полное игнорирование возможных последствий вновь привели его к правонарушению.

Решением суда гражданину назначено наказание в виде административного ареста. Он привлечен к ответственности за изготовление, распространение, рекламу и демонстрацию продукции, пропагандирующей наркотические средства, их аналоги или психотропные вещества.

Этот случай — еще одно напоминание о важности бдительности, особенно при поиске работы через непроверенные источники.

Юлия ЧАЙКИНА,
соб. корр.

AYOL VA JAMIYAT

KASBGA SADOQAT MEHNATSEVARLIKDAN BOSHLANADI



– Otam, iste'fodagi podpolkovnik Rustam Saparov uzoq yillar ichki ishlar organlarida samarali xizmat qilgan, – deydi mayor Elmira Saparova. – U xizmat vazifalarini sidqidildan bajarish barobarida, oilasi, biz – farzandlari ta'lim-tarbiyasiga ham alohida e'tibor qaratardi. Otam bilan faxrlanardik, unga havas qilardik. Ana shu havas ortidan men, singlim va ukam ota kasbini davom ettirishdek orzu bilan ulg'aydik. Hozir men Toshkent shahar Qo'riqlash boshqarmasi Yuridik ta'minlash va murojaatlar bilan ishlash bo'linmasi boshlig'i lavozimida xizmat qilaman. Singlim kapitan Eleonora Saparova Yunusobod tumani IIOFMB 5-sonli IIB HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori sifatida faoliyat yuritadi. Ukam Islombek iste'fodagi mayor, u IIV Qorovul qo'shinlarida xizmat qilgan.

Ha, inson kamolotida u tug'ilib o'sgan, tarbiya topgan oila, ayniqsa, bu qo'rg'onning asosiy suyanchlari, ya'ni ota-onaning alohida o'rni bo'ladi. Buni mayor Elmira Saparovaning so'zlaridan ham anglab olish qiyin emas.

– Biror kasbga qiziqish bilan shu sohaning odamiga aylanish o'rtasida katta farq bor ekan, – deya so'zida davom etadi u. – Bevosita shu sohaning ichiga kirib, unda faoliyat olib borish jarayonida kasbiy malaka shakllanarkan. Xizmat boshlaganimda tizimning o'ziga xos jihatlarini uyda otamdan, ishda ustozim, iste'fodagi podpolkov-

nik Bahodir Isayevdan o'rgandim. Lavhamiz qahramoni bugun ustoz maqomida. U talabchan ustoz sifatida shogirdlari – katta leytenant Mirzohid Hakimjonov, leytenant Sardor Giyasovga huquqiy bilimlarini doim oshirib borish kerakligini ta'kidlaydi.

– Xizmat boshlagan ilk kezlarim ustozim, mayor Elmira Saparova egallagan bilimlarimni bevosita xizmat jarayonida qanday qo'llashim kerakligi haqida doim maslahat berib, yo'l-yo'riq ko'rsatib turdi. Ulardan qat'iy intizom yuklatilgan vazifalarni to'liq va sifatli bajarishning muhim omili ekanligini o'rgandim, – deydi katta leytenant Mirzohid Hakimjonov.

Mayor Elmira Saparova ingliz, qozoq, turkman, qoraqalpoq hamda rus tillarini yaxshi o'zlashtirgan. Oilasida farzandlari Ixlosjon va Bexruzjonga ham «Til bilgan – el biladi» maqolini doim eslatib, xorijiy tillarni o'rganish, sport bilan muntazam shug'ullanishga undaydi. Aytgancha, Ixlosjon kelajakda onasining kasbini davom ettirish niyatida.

Ibrat. Shu birgina so'z zamirida orzu-istaklar bo'y ko'rsatib, maqsadlar kurtak ochadi, qanchadan-qancha insonlarning go'zal taqdiri yaraladi. Elmira Saparovaning bir paytlar otasi Rustam Saparovdan olgan ibrati uning o'g'liga ko'chayotgan bo'lsa, ne ajab. Axir, bag'rikeng otalar, mehdaryo onalar, albatta, kelajakka munosib voris tarbiyalaydi.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

HIKMAT

Noxush xabarni chin bo'lsa ham do'stingga yetkazma; birovdan ayb ko'rsang yuziga solma. Qo'yaver, o'sha chin xabarni dushman yetkazsin va sen sabr qil, u ayb mojarosini dushmani qilsin.

Aqli odam yolg'on gapirmas, ammo, barcha rost gapni aytaverish ham to'g'ri emas. Birovning ko'zi g'ilay – nogiron-dir, ammo bunga u aybdor emasdir... Birovni nohaq xijolatga solmoq – o'z nodonligini izhor qilmoq va bir ko'ngilni og'ritmoqdir. Bu kabi kishini xafa qiladigan chin so'zdan ko'ra zarurat yuzasidan – o'rni bilan gapirilgan yolg'on yaxshiroqdir.

Alisher NAVOIY.



MINNATDORLIK

Ushbu minnatdorlik satrlarini yozishimga yaqinda hayotimda yuz bergan bir voqea sabab bo'ldi. Aynan ichki ishlar xodimlarining sa'y-harakatlari tufayli ikki yildan buyon meni qiynab kelayotgan muammoga yechim topildi.

O'zim andijonlikman. Bir necha yildan buyon Toshkent shahrida istiqomat qilaman. Bundan uch yil avval Andijon shahridan uy sotib olmoqchi bo'lganimda, yaqin tanishim ishonchimga kirib, uyni uning nomiga olishimni iltimos qildi. Unga ishonib, taklifini qabul qildim. Ammo oradan bir yil o'tar-o'tmas, u uyni sotib, g'oyib bo'ldi. Uzoq muddat qidirib, aniq manzilini topolmaganimdan keyin bu haqda ichki ishlar organlariga xabar berdim. Biroq boshqa bir tegishli organing ayrim qo'shtirnoq ichidagi xodimlari tanish-bilishchilik ortidan arizamni qanoatlantirmay, meni ikki yil sarson qildi.

Yaqinda Andijon viloyati IIB boshlig'i, polkovnik Sanjarbek Jabarovning har yakshanba fuqarolar qabulini o'tkazishini eshitib, najot istab bordim. Navbat kutib o'tirarkanman, atrofdagilardan boshqarma boshlig'i haqida faqat iliq fikrlar eshitdim. Tez-tez amalga oshirilayotgan qabul jarayonlarida ko'plab

RAHMAT SIZGA, BOLAJONLARIM!

odamlarning muammosi hal bo'layotganini aytishdi. Menda ham umid uchqunlari uyg'ondi. Qabulga borib yanglishmagan ekanman. Sanjarbek ochiq chehra bilan kutib oldi. Dastabki muloqotdanoq samimiy, xalqparvar inson ekanligini angladim. Murojaatimni diqqat bilan tinglagach, meni qiynayotgan masalaga tez orada amaliy yechim topishda yaqindan yordam berishini aytdi. Haqiqatan ham, o'sha kundan e'tiboran men tomonimdan taqdim etilgan ariza va hujjatlar chuqur o'rganishga kirishildi.

Mana shu jarayonda hujjatlarni xolisona tayyorlab, tergovga taqdim qilgan Andijon shahar «Navbahor» MFY profilaktika inspektori, katta leytenant Asrorbek Javharovning xizmatlari katta bo'ldi. Shuningdek, Andijon shahar IIOFMB huzuridagi Tergov bo'limi boshlig'i, podpolkovnik Shohruxbek Mirzajonov, bo'lim tergovchisi, kapitan Muhammadali Turg'unboyev, Buloqboshi tumani IIB huzuridagi tergov bo'linmasi boshlig'i, kapitan Azizbek Mehmonov va bo'linma tergovchisi, katta leytenant Sulonmurod Temirovlarining bu ishga fidoyilik bilan yondashganini alohida ta'kidlab o'tmoqchiman. Ikki yil davomida meni qo'llab-quvvatlab, adolatsizlikka yo'l qo'yilmasligini ko'p bora ta'kidlagan, masalaning ijobiy hal etilishida jonbozlik ko'rsatgan Andijon viloyati IIB huzuridagi Tergov boshqarmasi boshlig'i, podpolkovnik Ilhomjon Fayzullayevga ham o'z tashakkurimni bildiraman. Keksa bir ayolning sarson bo'lishiga ularning adolatli xatti-harakatlari sabab chek qo'yildi.

Rahmat sizga, bolajonlarim. Haqiqatning qaror topishi tanimga mador bag'ishladi. Sizlar tufayli halovat va xotirjamlik topdim. Xalqqa halol va sadoqat bilan xizmat qilish yo'lida hech qachon charchamang. Men kabi onalar sizlar uchun hamisha duodamiz.

To'lganoy SOBIROVA.

MARD POSBONLAR JASORATI

Hali-hanuz buxorolik 2 nafar osoyishtalik posbonining jasorati ko'pchilikning tilidan tushmaydi. Voqelikdan xabar topganlar esa «Ota-onasiga rahmat, martabasi ulug' bo'lsin», deyishyapti. Shu bois bu haqda batafsil to'xtalishga jazm etdik.



mayor Suhrob Ergashov

Vobkent tumani IIB JXX HPB profilaktika katta inspektori, mayor Suhrob Ergashov 7-iyul kuni o'zi xizmat olib borayotgan «Xalach» mahalla fuqarolar yig'ini Choyxona qishlog'ida yashovchi, 1970-yilda tug'ilgan J. Husenovning hayotini saqlab qoldi. Gap shundaki, fuqaro J. Husenov oftob tig'ida ishlaganidan qon bosimi oshib, tilining orqaga ketishi natijasida uyi oldidagi zovur yonida hushidan ketadi. Mayor S. Ergashov aynan shu paytda qishloqda targ'ibot ishlarini olib borayotgandi. Bu xabarni eshitgach, yordamga shoshiladi. Fuqaroning tomir urishini tekshiradi, so'ngra darrov avtomashinasiga o'tqazib, 10-sonli QVPga olib boradi. Shifokorlarning tezkor tibbiy muolajalari natijasida fuqaro hayotga qaytariladi.

Buxoro shahar IIOFMB 1-sonli IIB JXX HPB profilaktika katta inspektori, mayor Madiyor Hakimov esa 9-iyul kuni soat 12:00lar atrofida Bahouddin Naqshband nomli mahalladagi 26-ko'p qavatli uyning 5-qavatida yong'in sodir bo'lganini eshitib, mahalla raisi bilan hodisa joyiga yetib boradi. Tezkor harakat bilan zinalardan odimlab, oltinchi qavatga ko'tariladi. Fuqaro eshigini ochgach, shu uyning balkonidan uy egasi uzatgan suv bilan yong'inni o'chirdi. Natijada ko'plab odamlar-

ning hayoti va mol-mulki saqlab qolindi.

Mayor Suhrob Ergashovning ukalari Sardor (iste'fodagi katta serjant) va Shohrux (kichik serjant) ham ichki ishlar xodimlari.

Buxoro davlat universitetini tugatgan S. Ergashov uch yil 24-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida jismoniy tarbiya fanidan o'quvchilarga saboq berdi. Ichki ishlar organlaridagi xizmat faoliyatini 2013-yilda viloyat IIB PPX va JTSB PPX batalyoni 3-otryadida safdor xodim lavozimida boshladi. 2016-yildan hozirgi kungacha qahramonimiz Vobkent tumani IIBda voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor, profilaktika inspektori, katta inspektori vazifalarida samarali faoliyat ko'rsatmoqda. U xizmat olib borgan mahallalarning barchasida jinoyatchilik va huquqbuzarlik holatlarini kamaytirishga erishdi. Xususan, ayni paytda xizmat ko'rsatayotgan «Xalach» mahallasi ham ikki yildan beri «yashil» toifada.

Mayor S. Ergashov uchun 2022-yil omadli keldi. O'shanda u fevral oyida sodir etilgan, ancha shov-shuvga sabab bo'lgan tomchilatib sug'orish nasos agregatlari o'g'rilarini qo'lga tushirgan edi. Uning sa'y-harakati tufayli bir kechaning o'zida to'rtta jinoyat fosh etildi. O'g'rilar nasos agregatlari va elektroshtlarni yechib olib ketishayotgan ekan.

Shundan bittasi G'ijduvon tumanining «Gulistonobod» mahallasi hududidagi fermer xo'jaligidan, yana bittasi Kogon tumani «Kogon» mahallasi hududida joylashgan



mayor Madiyor Hakimov

fermer xo'jaligidan o'g'irlangandi. Bu hali hammasi emas ekan. Mazkur holatlar aniqlangach, birin-ketin respublika bo'ylab sodir etilgan o'g'riliklar ham ochildi. Misol uchun, Samarqand, Qashqadaryo, Navoiy viloyatlari hamda viloyatimizning Peshko', Romitan, Qorako'l tumanlaridagi qirqa yaqin jinoyatlar fosh etildi.

Shu yili mayor Suhrob Ergashov ko'rsatgan jasorati uchun Ichki ishlar vazirining esdalik qo'l soati bilan taqdirlanib, imtiyozli ravishda IIV Akademiyasining sirtqi ta'lim

yo'nalishida o'qishga kirdi. Shuningdek, viloyat IIB rahbariyati tomonidan pul mukofoti va tuman hokimining qimmatbaho sovg'asini oldi...

Mayor Madiyor Hakimov 1986-yili Kogon tumanida tug'ilgan. U Buxoro davlat universitetini tugatgach, uch yil Kogon tumanidagi Maishiy kasb-hunar kolleji-da o'qituvchi bo'lib ishladi. 2014-yil avgust oyidan beri Buxoro shahar IIOFMB HPB profilaktika inspektori, katta inspektori lavozimlarida xizmat qilib kelyapti.

84 ta ko'p qavatli uyni o'z ichiga olgan Bahouddin Naqshband nomli mahallada 12 ming nafarga yaqin aholi istiqomat qiladi. Shuningdek, hududda ijaraga turuvchilar ham anchagina. Profilaktika katta inspektori, mayor M.Hakimov har kunlik ishni rejalashtirib amalga oshirmasa, qiyinchilikka uchrashi tayin. Shu bois u bugungi ishni ertaga qoldirmaslikka harakat qiladi. Navbatma-navbat ko'chalarni aylanib, fuqarolar bilan suhbatlashadi, har bir fuqaroning

va jonkuyaridir, – deydi mahalla raisi Hilola Isoqova. – U mahallamizda xizmatni boshlaganiga olti oydan oshdi. Shu oylar davomida ko'plab ijobiy ishlarni amalga oshirdik. Jumladan, xonadonma-xonadon o'rganish ishlarni olib borib, tadbirkorlik bilan shug'ullanmoqchi, ishlab chiqarish sexlarini ochmoqchi bo'lgan mahalladoshlarimizga banklardan imtiyozli kredit olishiga ko'maklashdik. Misol uchun, Y. Izomovaga o'tgan yili subsidiya asosida 2 ta tikuv mashinasi olib bergandik. U bir yilda o'zini tikladi. Shu bois unga 33 million so'm imtiyozli kredit olish uchun tavsiya berdik. Ayni paytda besh kishini ish bilan ta'minlab, ayol va erkaklar kiyimlarini tikishmoqda. G. Rustamova esa ko'rpa va ko'rpa-cha tikishni yo'lga qo'yib, imtiyozli kredit oldi, 3 nafar xotin-qizni ish bilan band qildi.

Hududda videokuzatuv kameralari o'rnatish ishlari

jadallik bilan olib borilmoqda. Bugungacha uylarning 80 foiz yo'laklari va mahalla kirish-chiqish joylarida videokuzatuv moslamalari o'rnatildi.

Bir so'z bilan aytganda, mayorlar Madiyor Hakimov va Suhrob Ergashov el-yurt tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash yo'lida fidoyilik ko'rsatib xizmat qilmoqda. Ularning xizmatidan aholi minnatdor bo'lib kelyapti.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

НАМАНГАНСКАЯ ОБЛАСТЬ



СЛЕД ВЕДЕТ К РАСКРЫТИЮ

Использование современных научно-технических методов приобретает все большее значение в борьбе с преступностью. В частности, деятельность экспертов-криминалистов занимает особое место в раскрытии преступлений. Они предоставляют ценную информацию следствию при анализе вещественных доказательств, изучении следов, установлении личности и осмотре места происшествия. Их профессиональные заключения также являются решающими в судебных разбирательствах.

За минувший период года на территории Давлатабадского района специалисты 141 раз участвовали в осмотре места происшествия, в 110 случаях собрали вещественные доказательства. Выполнено 15 исследований. 14 преступлений раскрыты по отпечаткам пальцев, сличенных в системе идентификации лич-

ности, в 9 ситуациях злоумышленников удалось установить по изображениям с камер фото- и видеонаблюдения.

Так, злоумышленники угнали автомобиль «Tracker», принадлежащий Г. К. из махалли Тадбиркор Давлатабадского района. Машину обнаружили брошенной на территории махалли Кумкурган Наманганского района. На месте удалось снять отпечаток пальца. В результате было установлено, что он принадлежит некоему И. Ю., 1986 года рождения, из махалли Юксалиш.

Та же система помогла сличить отпечатки пальцев, изъятых с другого места происшествия. На сей раз была совершена кража в магазине, что в махалле Умид. Злоумышленником оказался ранее судимый М. Б., 2007 года рождения, проживающий в махалле Гулбог города Намангана.

Азамжон БАБАЕВ,
майор.

РОВЕСНИКИ НЕЗАВИСИМОСТИ

СУДЬБА, ОПРЕДЕЛЕННАЯ С РОЖДЕНИЯ

Капитан Азиза Абдурасулова родилась 16 октября 1991 года в городе Бухаре. С детства проявляла интерес к иностранным языкам. Родители записали ее на курсы английского языка. В свободное от уроков время с увлечением постигала язык Шекспира.

Закончив школу, А. Абдурасулова поступила в Бухарский государственный университет на направление «Филология и преподавание языков».

– Став дипломированным специалистом, четыре года проработала преподавателем английского языка в общеобразовательной школе № 35 города Бухары, – рассказывает Азиза. – Затем подала документы в УВД области. Успешно пройдя отбор, была принята в Управление обеспечения безопасного туризма областного УВД. В настоящее время я – инспектор группы обеспечения общественного порядка.

Знание русского и английского языков позволяет ей свободно общаться с иностранными гостями, приезжающими в древний город. В обязанности входит обеспечение безопасности туристов, противодействие преступности, предупреждение правонарушений, поиск

пропавших или оставленных вещей любителей путешествий, при надобности – оказание первой медицинской помощи.

– Ответственная служба требует постоянной концентрации внимания и сил. Рада, что содействую формированию привлекательного имиджа страны в глазах гостей города. Социальная поддержка, оказываемая государством, способствует решению жилищно-бытовых вопросов сотрудников. В минувшем году получила беспроцентную ссуду на ремонт дома, – делится Азиза. – Быть ровесником независимости приятно и ответственно. Стараюсь идти в ногу с масштабными преобразованиями, осуществляемыми в независимом Узбекистане.

Капитан А. Абдурасулова вместе с супругом Мехробиддином Каршиевым воспитывают двоих детей, живут в любви и согласии.

Мирзокул АХАДОВ,
соб. корр.

Бухарская область.



КАШКАДАРЬИНСКАЯ ОБЛАСТЬ

УКРЕПЛЯЯ
ПРАВОПОРЯДОК

В целях противодействия преступности, профилактики правонарушений осуществляются системные меры.

В области выявлено 8 случаев, связанных с распространением материалов экстремистского толка. Так, житель города Карши создал в инстаграме аккаунт, подписался на закрытые каналы, принадлежащие международным экстремистским и террористическим организациям, и активно поддерживал их идеи. Распространял запрещенную литературу, устраивал обсуждения с виртуальными друзьями, пропагандировал насилие. Органы правопорядка по данному факту провели дознание.

Установлено местонахождение и задержано 21 лицо, скрывавшееся от правосудия. У граждан изъяты 994 единицы холодного оружия. С лицами, склонными к правонарушениям и преступлениям, проведены профилактические беседы.

Ирода РАСУЛОВА,
подполковник.



▶ NUQTAYI NAZAR

YOSHLIKDA YO'L QO'YILGAN XATO bir umr dog' bo'lib qoladi



Bugungi kunda yurtimizda yoshlarga qaratilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik har qachongidan ham yuksak darajada.

Inspektor sifatida men ko'plab yoshlar bilan suhbatda bo'laman. Afsuski, ba'zan yoshlar nochor oila muhiti, e'tiborsizlik yoki bilimsizlik tufayli xato yo'lga

lingan xatolar hayotning butun yo'lini o'zgartirishi mumkin. Shu sababli biz, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari nafaqat nazorat qiluvchi, balki maslahatchi,



kirib qolishadi. Holbuki, har bir farzand – ota-ona, maktab va jamiyatning umumiy mas'uliyatidir. Yoshlikda qi-

tarbiyachi va yo'l ko'rsatuvchi vazifasini ham bajarimiz. Shu maqsadda muntazam ravishda profilak-



tik tadbirlar va ota-onalar bilan uchrashuvlar tashkil etyapmiz. Har bir yigit-qiz bilan shaxsan suhbatlashib, qiziqishlari, orzu-umidlari va muammolarini tushunishga harakat qilamiz.

Voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish maqsadida jinoyatlarning kelib chiqish sabablarini o'rganib bormoqdaman. Ota-onaning ajrashishi, doimiy nizolar, e'tiborsizlik yoki zo'ravonlik bola psixologiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Nazoratsizlik va bo'sh vaqtning ko'pligi tufayli yoshlar ko'cha muhiti ta'siriga tushib qolishi hamda yomon odatlarni qabul qilishi mumkin.

Bundan tashqari, yoshlar o'rtasida ma'lumot va tarbiya yetishmasligi, ayniqsa, huquqiy savodxonlikning past darajada bo'lishi jinoyat va huquqbuzarlikka bo'lgan munosabatni zaiflashtiradi. Yomon atrof-muhit hamda salbiy ijtimoiy ta'sirlar, ya'ni nomaqbul do'stlar, internetdagi zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi kontentlar yoshlar ongiga kuchli ta'sir qiladi. Shuningdek, ishsizlik va ijtimoiy muammolar hamda moddiy ehtiyojlari sabab ayrim yoshlar jinoyatga qo'l urishga majbur bo'ladi.

Voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish choralarini ham izlashga intilyapman. Buning uchun, avvalo, oiladagi tarbiyani mustahkamlash o'rinli. Asosan ota-onalar bolalariga e'tiborli, mehribon va bir vaqtning o'zida talabchan bo'lishlari kerak. Yana ta'lim muassasalarida huquqiy ta'limni kuchaytirish maqsadga muvofiq. Ko'proq huquqiy tarbiya darslari, treninglar o'tkazilsa va ular hayotiy misollar bilan boyitib borilsa, bu yoshlarning jinoyatga bo'lgan munosabatini o'zgartiradi. Shuningdek, yoshlarni bandlik bilan ta'minlash ayni dolzarb masala sanaladi. Bu borada asosan yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish, tadbirkorlikka qiziqtirish hamda ijtimoiy loyihalarda qatnashtirish ijobiy natija beryapti.



Yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiya va foydali dam olishini tashkil etish maqsadida sport, kitobxonlik, teatr, musiqa kabi faoliyatlarga jalb etish – yaxshilik alomati. Ta'lim muassasalarining huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorligini kuchaytirmoq lozim. Hamkorlikda profilaktik tadbirlar, suhbatlar o'tkazib, har bir

biz, kattalarning burchidir. Yoshlarimizga bilim, ma'rif va axloq asosida tarbiya berish orqaligina huquqbuzarliklarning oldini olish mumkin.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlamoqchimanki, voyaga yetmaganlar bilan ishlash nafaqat mas'uliyat, balki katta sabr, mehr va tushunishni talab etadi. Agar



tadbirdan so'ng monitoring qilib borish joriy etilsa, bu ham samarali omillar qatoriga kiradi.

Har bir yoshning hayoti qimmatli. Unga to'g'ri yo'lni ko'rsatish, qo'llab-quvvatlash va ishonch bildirish

barcha birdek bu masalaga e'tiborli bo'lsa, yuksak ma'naviyatli, qonuniylikka sodiq va yurtga fidoyi yoshlar safi kengayib boradi.

Yusuf NASULLAYEV,
Katta leytenant.
Vobkent tumani.



MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT DARSII

**MANFAATLAR TO'QNASHUVI –
KORRUPSIYA O'CHOG'I**

Korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillardan biri manfaatlar to'qnashuvidir. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarida xizmat qiluvchi barcha darajadagi mansabdor shaxslar o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin. Shu bois davlat hokimiyati tizimida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik, bunday holat yuzaga kelganda, uni ijobiy hal etish masalasi hozirgi davrda korrupsiyaga qarshi kurashning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Manfaatlar to'qnashuvi deganda, shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o'z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to'qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi) vaziyat tushuniladi.

Manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish maqsadida 2024-yil 5-iyun kuni O'zbekiston Respublikasining «Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish, unga oid munosabatlarni aniqlash, manfaatlar to'qnashuvi haqidagi axborotni oshkor qilish va uni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilaydi. Shuningdek, qonun davlat tashkilotlaridagi xodimlarning huquq va majburiyatlarini aniq tartibga soladi. Shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlari maqsadida qonunga xilof ravishda foydalaniishi yo'lidagi xatti-harakatlarining bir qismini bartaraf etadi, davlat budjetining noqonuniy o'zlashtirishining oldini oladi, davlat tashkilotlarida mehnat munosabatlari va davlat xaridlarining ochiqligini va shaffofligini ta'minlaydi.

Endilikda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan birga, davlat tashkilotlarining odob-axloq komissiyalari, kadrlar bo'linmalari va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari manfaatlar to'qnashuvini tartibga solishni amalga oshiradigan organlar sifatida mustahkamlandi. Shuningdek, qonun bilan manfaatlar to'qnashuvining oldini olish maqsadida davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlariga nisbatan cheklolvar belgilandi. Jumladan, qonunda



xodimlar shaxsiy naf olishga, manfaatlar to'qnashuvi haqidagi axborotni oshkor etish chog'ida ma'lumotlarni yashirishga, bo'ysunuvchi yoki nazoratidagi tashkilotlarda o'rindoshlik bo'yicha ishlashga, tijorat tashkilotlarining ta'sischi bo'lishga, o'zi mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan davlat organi yoki boshqa tashkilotning nazoratida bo'lgan tadbirkorlik faoliyati subyekting aksiyalariga yoki ustav fondidagi ulushlariga egalik qilishga, uning boshqaruv organi a'zosi bo'lishga, o'zi mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan davlat organlarida yoki boshqa tashkilotlarda o'ziga yoki o'ziga aloqador shaxslarga taalluqli bo'lgan ishlarni ko'rib chiqishda vakil sifatida ishtirok etishga, o'zi mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan tashkilotning mol-mulkini sotib olishda yoki ijara olishda o'zi ishtirok etishga haqli emasligi nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, qonunda davlat tashkiloti xodimlariga nisbatan manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha cheklolvar, manfaatlar to'qnashuviga oid talablarni buzishning huquqiy oqibatlarini, manfaatlar to'qnashuviga

yo'l qo'ygan holda qabul qilingan va tuzilgan bitimlarni sud tartibida haqiqiy emas deb topish asoslari, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yganlik uchun javobgarlik choralarini belgilandi.

Manfaatlar to'qnashuvini aniqlash tegishli manbalardan olingan ma'lumotlarni o'rganish orqali amalga oshiriladi. Davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining



Bahrom SAIDOV,
IIV Akademiyasi Magistratura boshlig'i, polkovnik,
yuridik fanlar doktori,
professor.

hamda ular uchun zarur tushuntirish ishlarini olib borish davlat organlari va tashkilotlarining birinchi rahbarlari zimmasiga yuklatildi.

Shu bilan birga, «Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida»gi qonun ijrosini tashkil etish ishlarini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi tasdiqlandi va uning asosiy vazifalari belgilab berildi. Xususan, respublika idoralararo komissiyasining ishchi organlari tomonidan har chorakda davlat organlari va tashkilotlarida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilgan holatlar, ularni bartaraf etish, shuningdek, bunday holatlarning oldini olish bo'yicha ko'rilgan choralar haqida jamoatchilikni xabardor qilib borish amaliyoti joriy etildi.

Manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq holatlarni aniqlashda jamoatchilik ishtirokini ta'minlash maqsadida davlat organlari va tashkilotlari xodimlari faoliyatida manfaatlar to'qnashuvi holatlari bo'yicha tegishli dalillarni ilova qilgan holda, ularni aniqlashda faol yordam bergan shaxslarga undirilgan jarimaning ellik foizi miqdorida mukofot puli beriladi.

Xulosa qilib aytganda, milliy qonunchiligimizdagi o'zgarishlar, hukumat darajasida belgilangan aniq chora-tadbirlar, xususan, davlat tashkilotlarida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, aniqlash va tartibga solishning samarali mexanizmlarini joriy etish, uning huquqiy oqibatlarini aniq belgilash mamlakatimizning korrupsiyaga oid xalqaro reytingdagi ko'rsatkichlari yuksalishiga xizmat qiladi.



Maqolani
qoraqalpoq tilida
o'qish uchun
QR-kodni skaner
qiling.

KASB FIDOYISI

TEMIRYO'L YOQALAB...

Farg'ona viloyati Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha katta inspektori, mayor Shahzod Nazarovning zimmasiga 46 kilometrli po'lat izlar atrofidagi mahallalarda profilaktik ishlarni olib borishdek o'ta mas'uliyatli vazifa yuklatilgan.



– Xizmat hududim Oxunboboyev nomli bekatdan boshlanib, Andijon viloyati chegarasigacha bo'lgan hududdagi Quva bekatini o'z ichiga oladi, – deydi tajribali mayor. – Ushbu hududda 20 ta mahalla hamda 19 ta ta'lim muassasasi joylashgan bo'lib, 6 ta temiryo'l kesishmasi o'tgan. Shu bois har kuni temiryo'l yoqalab, xalqimiz bilan hamnafas xizmat olib boraman. Fuqarolar bilan gaplashaman, ta'lim maskanlariga kirib, yoshlarga temiryo'l atrofidagi yurish qoidalarini o'rgatishdan erinmayman. Maqsadim – poyezdlar xavfsiz va ravon harakatlanish, temiryo'l atrofidagi biron jabr chekmasin.

Tajribadan yaxshi ma'lumki, temiryo'lga yaqin mahallalarda yashovchi yosh bolalar orasida po'lat izlar atrofidagi o'ynash, chorva mollarini boqish holatlari ko'p kuzatiladi. O'yinqaroq bolalar ba'zida sho'xlik qilib, poyezdlarga tosh otiishi ham kuzatilgan.

Mayor Shahzod Nazarov xizmat olib borayotgan temiryo'lning 262-kilometrida aynan shunday holat

sodir etilgan. Shu atrofda o'ynab yurgan maktab o'quvchisi yo'lovchi vagon oynasiga tosh otgan. Natijada oyna sinib, shikast yetgan.

Ushbu voqea mazkur mahalla va bola o'qiydigan maktabda zudlik bilan muhokama qilinib, kelgusida shunday salbiy hodisalarning oldini olish choralari ko'rilgan. Bolaning ota-onasi jiddiy ogohlantirilgan.

«Temiryo'llarda xavfsiz kun» profilaktik tadbirlarida lavhamiz qahramoni Quva tumanidagi «Damarariq», «Guliston», «Yangi chek» mahallalarida bo'lib, 500 nafardan ziyod aholi o'rtasida temiryo'llar atrofidagi xavfsiz harakatlanish borasida targ'ibot ishlarni olib bordi.

2010-yildan buyon ichki ishlar organlarida xizmat qilib kelayotgan fidoyi katta inspektor Buvayda tumandagi Arab qishlog'ida istiqomat qiladi. Turmush o'rtog'i bilan ahillikda 3 nafar farzandni munosib tarbiyalamoqda.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.
Farg'ona viloyati.

QAROR VA IJRO

IMKONIYATLAR ESHIGI

Yo'l odamlar taqdiri kesishadigan, shoshqaloqlik va mas'uliyat o'rtasida tanlov qilinadigan manzildir. Tartibsiz harakat, behurmatlik, beparvolik ba'zan fojiali oqibatlarining boshlanishi bo'ladi. Qayerdagi, belgilangan qoidalarga rioya qilinsa, o'sha joyda tinchlik va barqarorlik hukm suradi. Yo'lda ham shunday. Qizil chiroqda to'xtash – hayotga hurmat, yo'l belgisiga rioya qilish – tartibga itoat.



Bugungi kunda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash nafaqat huquqni muhofaza qilish organlari, balki keng jamoatchilik oldida turgan muhim vazifalardan biriga aylangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-dekabrda «Ichki ishlar organlarining yo'l harakati qoidalarini buzish bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish sohasidagi faoliyatini takomillatirish to'g'risida»gi qaroriga asosan, Samarqand viloyati IIB JXX YHXBda Ma'muriy

masala tahlil etilib, tegishli qaror qabul qilinadi.

Markazning va hududiy markazlarning asosiy maqsad hamda vazifalari yo'l harakati qoidabuzarliklariga doir ishlarni o'z vaqtida ko'rib chiqish va qonuniy qaror qabul qilish, mazkur yo'nalishdagi murojaatlarni ko'rib chiqishda fuqarolar sarsongarchiligining oldini olish, ularga qo'shimcha qulaylik yaratish hisoblanadi.

Endi voqea qayerda sodir bo'lganligidan qat'i nazar, fuqaro markazga yoki hududiy markazlarga muro-

riy ishlarni ko'rib chiqish, ma'muriy qarorlar ijrosini ta'minlash, murojaatlar bilan ishlash, axborot texnologiyalari hamda tuman-shaharlarga xizmat ko'rsatish guruhlari faoliyat ko'rsatayapti. Har kuni o'rtacha 100–130 nafar fuqaroning murojaatlari ko'rib chiqilyapti. Bundan tashqari, bu yerda «Call centr» tezkor aloqa tarmog'i ham ishlab turibdi.

– Yangi avtomashina xarid qilgandim. Hujjatlarini rasmiylashtirishda texnik xatolik yuz bergan ekan. Buni men o'z vaqtida bilmagandim.



amaliyot markazi tashkil etildi.

Bu borada viloyat IIB JXX YHXB Ma'muriy amaliyot markazi inspektori, kapitan Jasur Boymirzayev bilan suhbatlashganimizda shunday dedi:

– Markaz faoliyatida zamonaviy texnologiyalar keng qo'llaniladi. Ba'zilar bu Markazning vazifasi faqat jarima solish deb o'ylaydi. Vaholanki, yangi tuzilma xodimlari har bir qoidabuzarlik ortidagi sababni izlashadi. Masalan, nega haydovchi qizil chiroqda harakatlandi? Nima uchun piyoda yo'lni belgilanmagan joyidan kesib o'tdi? Har bir

jaat qilishi mumkin. Agar u o'ziga nisbatan qo'llanilgan jazodan norozi bo'lsa yoki shunga o'xshash vaziyatlarda qonuniy qaror qabul qilinishini so'rab markazga kelishi, hech qanday to'siqlarsiz savollariga mutaxassislardan batafsil javob olishi mumkin. Bu nafaqat yo'l harakati qoidabuzarliklari bilan bog'liq holatlarni tezkor hal etish, balki fuqarolarning hayoti va qadr-qimmatini ishonchli himoya qilish borasidagi ilg'or xorijiy tajribalarni amaliyotga joriy etishga xizmat qiladi.

Markaz tarkibida ma'mu-

Ma'muriy amaliyot markazi xodimlariga murojaat qilganimdan keyin, muammo-yim tezda hal bo'ldi, – deydi Nodir Xolmatov.

Ma'muriy amaliyot markazining tashkil etilishi yo'l harakati qoidalarini buzish bilan bog'liq ishlarni ko'rib chiqishni samarali va shaffof o'rganishda muhim qadam bo'ldi. Bu, o'z navbatida, fuqarolarning huquqlarini himoya qilish, ularga tez va sifatli xizmat ko'rsatishda yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.

Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.
Samarqand viloyati.

JAHON CHEMPIONATI

SPORTIMIZ TARIXIDA YANGI SAHIFA



XAVFSIZLIK VA QULAYLIK

Chempionatni tartibli va yuqori darajada o'tkazish uchun O'zbekiston Voleybol federatsiyasi huzurida shtab tashkil etildi. Shtabning asosiy vazifasi sifatida sportchilarning o'z vaqtida zallarda bo'lishi, ovqatlanish, mehmonxona, transport masalalari va shu kabi bir qancha muhim ishlar belgilab olindi. Mas'ullarga xalqaro musobaqa ishtirokchilari joylashadigan, ovqatlanadigan, tashrif buyuradigan joylar va ularning atrof-hududlarida jamoat tartibi saqlanishi, fuqarolar xavfsizligini ta'min-

lash, shuningdek, xorijiy davlatlardan kelgan ishtirokchilarga kirish vizalarini tezkorlik bilan rasmiylashtirish masalalari bo'yicha tegishli tavsiya va ko'rsatmalar berilgan.

RAQAMLAR

Jahon birinchiligi doirasida 24 ta davlatdan 288 nafar yosh voleybolchi ishtirok etmoqda. Musobaqaga 56 nafar xalqaro, 50 nafar mahalliy hakam, shuningdek, 80 nafar texnik mutaxassis jalb etilgan. Bellashuvlar poytaxtimizdagi «Saxovat sport servis» sport majmuasi hamda Chirchiq shahridagi

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti-ning zallarida o'tkazilmoqda. Musobaqada ishtirok etuvchi jamoalar 4 guruhga bo'lingan holda chempionlik uchun kurash olib borishdi.

NATIJALAR

«A» guruhidan o'rin olgan O'zbekiston terma jamoasi pley-off bosqichi yo'llanmasi uchun Belgiya, Argentina, Puerto-Riko, Turkiya va Pokiston jamoalariga qarshi

bahs olib bordi. Joriy yilning 24-iyul kuni, chempionatning tantanali ochilish marosimidan so'ng, O'zbekiston va Turkiya milliy terma jamoalari o'rtasida dastlabki uchrashuv bo'lib o'tdi.

O'zbekiston yoshlar terma jamoasi a'zolari ushbu uchrashuvda Turkiya voleybolchilarini 3:0 hisobida mag'lubiyatga uchratdi.

Keyingi bahsda voleybolchilarimiz Pokistonga 0:3 hisobida imkoniyatni boy berdi. Chempionatning navbatdagi turi bellashuvi esa muxlislarni quvontirdi. Vakillarimiz Puerto-Riko terma jamoasini dog'da qoldirishdi. Hisob esa 3:0. Guruhning markaziy to'qnashuvi, shubhasiz, musobaqa favoritlaridan biri Argentina qarshi bo'ldi. Afsuski, har bir ochko uchun mardonavor kurashgan yigitlarimizga biroz omad yetishmadi va 1:3 hisobida imkoniyat boy berildi.

Guruhning so'nggi o'yini Belgiya bilan bo'lib o'tdi. Unda mehmonlarimiz 3:0 hisobida g'alaba qozondi. Biroq bu mag'lubiyat yurtdoshlarimizning guruhdan chiqishiga va kuchli 16 talikka kirishiga to'sqinlik qilmadi. Jahon voleybolida o'z o'rniga ega bo'lgan Pokiston, Belgiya, Argentina jamoalaridan keyin 4-o'rinni egallagan O'zbekiston U19 terma jamoasi qo'lga kiritgan ikki g'alaba keyingi bosqichda «C» guruhi g'olibi Italiya terma jamoasi bilan kuch sinashishiga imkon yaratdi.

Italiya jamoasiga qarshi kechgan murosasiz bahsda omad raqiblar tomonida bo'ldi.

O'ylaymizki, keyingi sport musobaqalarida terma jamoamiz yanada munosib ishtirok etadi.



TAASSUROTLAR BIR OLAM

Xalqaro voleybol federatsiyasi (FIVB)ning nufuzli delegatsiyasi qadimiy va betakror Samarqand shahriga tashrif buyurdi. Ular mamlakatimizning eng mashhur tarixiy yodgorliklari va madaniy markazlari bilan yaqindan tanishishdi.

Tashrif doirasida Registon maydoni, Mirzo Ulug'bek observatoriyasi, Go'ri Amir maqbarasi, Bibixonim masjidi, Shohizinda majmuasi, Samarqand qog'ozi ishlab chiqarish markazi, shuningdek, yana bir qancha boshqa diqqatga sazovor joylarni ko'rishdi. Hazrati Hizr masjidi, Xo'ja Doniyor maqbarasi, Afrosiyob muzeyi va boshqa tarixiy-madaniy obidalar ham ularda olam-olam taassurot qoldirdi.



Mushtaque MOHAMMED, Xalqaro voleybol federatsiyasi delegati, nazorat komissiyasi raisi:

– O'zbekiston voleybol federatsiyasi biz bildirgan ishonchni to'liq oqladi. Qisqa vaqt ichida bunday yirik turnirga tayyor bo'lishlarini kutmagandik. Biroq bu vazifa uddalandi. Jarayonlar biz kutgan natijadan ham yuqori darajada tashkil-lashtirilgan. Bu bizni quvontiradi. Chempionat yuqori saviyada o'tmoqda deb hech ikkilanmay aytishimiz mumkin. Musobaqa tashkilotchilik jihatidan tarixda munosib e'tirof etiladi, degan umiddaman.



Fabio AZEVEDO, Xalqaro voleybol federatsiyasi prezidenti:

– Sportning boshqa turlari qatori voleybol ham bugungi kunda dunyo miqosida tez rivojlanib bormoqda. Shu jumladan, O'zbekistonda keng-ommabop tarzda rivojlanib boruvchi sport turi hisoblanibgina qolmay, keng jamoatchilikning e'tirofiga sazovor bo'lgan sport yo'nalishi hisoblanadi. Jahon chempionati mezbonligining aynan O'zbekistonga topshirilishi aynan yuqoridagi so'zlarimga yaqqol dalildir.



Qo'shsahifa materiallarini maxsus muxbirimiz Abror POYONOV tayyorladi.

КОНФЛИКТ ИНТЕРЕСОВ – ОЧАГ КОРРУПЦИИ

Конфликт интересов несет в себе серьезные риски, способные подорвать имидж государственного органа и репутацию компании, привести к причинению вреда правам и законным интересам граждан, организаций, общества и государства.

Конвенция ООН против коррупции предписывает государствам «устанавливать меры и системы, обязывающие публичных должностных лиц представлять соответствующим органам декларации, среди прочего, о внеслужебной деятельности, занятиях, инвестициях, активах и о существенных дарах или выгодах, в связи с которыми может возникнуть коллизия интересов в отношении их функций в качестве публичных должностных лиц».

Согласно указанному положению в более чем 130 государствах приняты нормативные акты по предупреждению конфликта интересов и различных форм его проявлений. В частности, в Австралии, Великобритании, Германии, Франции, США, Италии, Сингапуре, Республике Корея, Японии, государствах Центральной и Восточной Европы наряду с законами о противодействии коррупции, предупреждении конфликта интересов действуют акты, направленные на недопущение коррупционного лоббизма, фаворитизма, клиентелизма, непотизма, групповщины, местничества, кумовства и пантуфляжа (неограниченного перемещения государственных служащих в частный сектор, который они курировали, а также перемещения предпринимателей в государственные структуры).

Независимо от того, насколько отлажены рабочие процессы, любой государственный орган или бизнес-структура не застрахованы от ситуаций конфликта интересов, в которых личные интересы должностного лица преобладают над его профессиональными обязанностями. В таких случаях госслужащему запрещается осуществлять должностные обязанности.

Несмотря на то, что положения о предотвращении конфликта интересов фрагментарно содержались в законах «О противодействии коррупции», «О государственных закупках», «О государственной гражданской службе», Типовых правилах этического поведения государственных служащих, целостного закона, регламентирующего меры по предупреждению конфликта интересов и ответственности за его совершение до 2024 г. в Узбекистане не

было. В целях восполнения пробела в правовом регулировании **Президентом Узбекистана 5 июня 2024 г. был подписан Закон «О конфликте интересов».**

Законом регламентирован порядок государственного регулирования отношений, связанных с конфликтом интересов, меры по выявлению и раскрытию информации о нем, а также порядок рассмотрения и проверки мер, принятых по урегулированию конфликта интересов.

В нем даны определения основных понятий. Под **конфликтом интересов** понимается ситуация, при которой личная заинтересованность (прямая или косвенная) лица влияет



или может повлиять на надлежащее исполнение им своих должностных или служебных обязанностей и при которой возникает (реальный конфликт интересов) либо может возникнуть (потенциальный конфликт интересов) противоречие между личной заинтересованностью и правами, законными интересами граждан, организаций, общества или государства.

Под личной заинтересованностью понимается любая выгода или преимущество, которую может получить сотрудник государственного органа или иной организации или связанные с ним лица, в результате непосредственного либо косвенного принятия им решения или иного его участия в этом процессе.

Близкие родственники в контексте закона – родители, братья, сестры, сыновья, дочери, супруги, а также родители, братья, сестры и дети супругов.

Связанными лицами сотрудника госоргана или иной организации признаются его близкие родственники, юридическое лицо, акциями или долями уставного фонда (уставного капитала) которого владеют сотрудник и (или) его близкие родственники либо где они являются руководителями или членами органа управления.

Связанные лица при вступлении в отношения с госорганом или иной организацией, в котором работает сотрудник, обязаны не допускать конфликт интересов в личных интересах, а также заполнять декларацию о потенциальном конфликте интересов в электронной или письменной форме и не вносить в нее заведомо ложные и недостоверные сведения.

Под действие Закона подпадают госорганы, учреждения, унитарные предприятия и органы государственной власти на местах, целевые госфонды, акционерные общества с долей государства в их уставном

фонде (уставном капитале) 50% и более.

В качестве специально уполномоченного государственного органа в сфере регулирования отношений, связанных с конфликтом интересов определено Агентство по противодействию коррупции Республики Узбекистан.

Для урегулирования случаев конфликта интересов предусматривается возможность:

▶ перевода сотрудника государственного органа или иной организации, непосредственно подчиненного руководителю, по отношению к которому возник конфликт интересов, к другому руководителю, с которым не возникнет конфликт интересов;

▶ добровольного самоотвода или принудительного отстранения сотрудника государственного органа или иной организации из состава коллегиального органа, где может возникнуть конфликт интересов;

▶ пересмотра круга должностных обязанностей или служебных полномочий сотрудника государственного органа или иной организации;

▶ ограничения использования сотрудником государственного органа или иной организации информации и документов государственного органа или иной организации, которые могут привести к конфликту интересов.

В случае невозможности принятия мер по устранению личной заинтересованности сотрудника государственного органа или иной организации, необходимо перевод его на другую должность, равнозначную предыдущей, или расторжение трудового договора (контракта) на общих основаниях с его согласия и др.

Конкретизированы меры ответственности должностных лиц за нарушение законодательства о конфликте интересов.

В частности, КоАО дополнен ст. 193⁴ **«Невыполнение требования законодательства о конфликте интересов».** Также ст. 114 ГК дополнена частями третьей и четвертой следующего содержания: **«В случае признания сделки, заключенной с допущением конфликта интересов, недействительной, прибыль, полученная этой сделкой, обращается в доход государства в судебном порядке без требования о возврате всего полученного по сделке. Расходы, связанные с исполнением такой сделки, возмещаются за счет лица, допустившего конфликт интересов. В случае признания сделки, заключенной с допущением коррупции, недействительной, ущерб, причиненный физическим и юридическим лицам в результате ее заключения, возмещается виновными лицами в судебном порядке».** Ст. 116 ГК дополнена частью второй: **«Сделка, заключенная с допущением коррупции, признается недействительной в судебном порядке».**

Указанные меры будут способствовать минимизации рисков коррупции и теневой экономики, повысят доверие граждан к государственным институтам. Систематическое обучение сотрудников также поможет снизить риски возникновения конфликта интересов, повышая их осведомленность о потенциальных ситуациях и способах их предупреждения.

Баходир ИСМАИЛОВ,
доктор юридических наук,
профессор.

SALOMATLIK POSBONLARI

HAR SO'ZIDA HAYOT NAFASI

Shifokorning shirinsuxanlik bilan ko'rsatgan muolajasi jism-u joni xastalikdan aziyat chekib turgan insonning ong-u shuuri, butun borlig'ida butunlay sog'ayish umidini uyg'otadi. Toshkent shahar IBB Tibbiyot bo'limi poliklinikasining terapiya bo'linmasi shoxobcha oilaviy shifokori Muhiba Hasanova ham mas'uliyatli soha xodimlarining salomatligini saqlashda ana shunday jonkuyarlik bilan faoliyat yuritadi.

– Har kuni qabulimga turlicha kayfiyatdagi ichki ishlar organlari xodimlari, ularning oila a'zolari, soha faxriylari keladi, – deydi Muhiba opa. – Kimdir vaqti-vaqti bilan qon bosimi oshayotgani, boshqalar o'zini behol sezib, isitmalayotgani, boshi, tomog'i og'riyotganini aytadi.

– Ko'p yillar ishlab pen-siyaga chiqqanman, – deydi faxriy Shuhrat Mahkamov. – Biroq odamning yoshi ulg'aygani sari turli kasalliklar bezovta qilar ekan. Sog'lig'imda biror muammo bo'lsa, darhol Muhiba Hasanova qabuliga shoshilaman. Juda tajribali shifokor. Dastlab shikoyatimni diqqat bilan eshitadi, so'ng zarur tekshiruv, qon va boshqa tahlillarga yo'naltiradi. Aniq tashxis qo'ygach, davolash muolajalarini tayinlaydi.

– Men mazkur poliklinikada faoliyat boshlaganimga hali ko'p bo'lmadi, – deydi yosh shifokor Sevara Panjiyeva.

– O'z o'rnida talabchan va bag'rikeng ustozimning maslahat, yo'l-yo'riqlari bilan ichki ishlar organlari xodimlarida ko'p kuzatiladigan kasalliklar va ularni davolashda nimalarga ko'proq ahamiyat qarata-tishim kerakligini o'rganib, tajribamni boyitib bormoqdaman. Muhiba opadagi o'ziga nisbatan talabchanlik, shifokor sifatida zamon bilan hamqadam bo'lishga intilish kuchli ekanligiga havas qilaman. Chunki bugun barcha sohalarda bo'lgani kabi, tibbiyotga ham zamonaviy tibbiy anjomlar kirib kelmoqda.

Shifokorning o'z o'rnida qo'llagan muolajasi bemorga, avvalo, ishonch bag'ishlaydi. U xodimlarga turli xastaliklarning oldini olishda nafaqat dori-darmon, balki tabiiy mahsulotlardan ham samarali foydalanish bo'yicha tavsiyalar beradi.

– Otam Mahmud Hasanov tibbiyot sohasida uzoq yillar samarali mehnat qilgan, – deydi

Muhiba opa. – U kishining tibbiyot oliygohini tamomlagan kunim: «Odamlarni chin ko'ngildan davolagin, ular sendan rozi bo'lsin. Shifokorlik sha'ningga aslo dog' tushirma, qizim», – degan so'zlari xuddi kecha aytilgandek qulog'im ostida jaranglab turadi.

Qahramonimiz turmush o'rtog'i Dilshod Qahhorov bilan ahil-inoqlikda farzandlari Jamshid, Jahongir va Dinaraxonni el-u yurtga naf keltiradigan insonlar qilib tarbiyalashmoqda. Dinaraxon kelajakda shifokor bo'lish niyatida.

Har soniyada odamlarga yaxshilik sog'inib, ezgu amallar qilishdan ibratli umr kitobi yaraladi. Muhiba Hasanova oramizdagi har bir so'zida hayot nafasi ufurib turuvchi ibratli umr kitobini yaratayotgan fidoyilardan biri ekaniga shubha yo'q.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

MUAMMO VA MULOHAZA

TO'Y KARVONI BOSHIDAGI KIM?

Odatlarning hammasi foydali bo'lavermasligini, qadriyatga aylantirilishini to'ylarimiz bilan bog'liq isrofgarchilik va dabdabaga asoslangan ayrim tadbir-u marosimlarimiz tasdiqlaydi. Shunday qusurlar sirasiga kelin-kuyov hamda ularning do'st-u dugonalari chiqqan avtomashinalar karvonining guruh holda harakatlanishini qo'shish mumkin. Binobarin, ana shunday qoidabuzarlik tufayli avtohalokatlar yuz berayotgani, kimningdir salomatligiga ziyon, yana bironing avtoulloviga shikast yetayotgani hech kimga sir emas.

Tanish haydovchi bunday karvonda yo'lga chiqqan yoshlar «Pulini to'laganmiz» degan vaj bilan avtoullov egasini tezroq haydashga undashlarini aytib qoldi. Spirtli ichimlik ta'sirida avtomashina boshqaruviga xalaqit qiladiganlar ham uchrarkan. Eng yomoni – haydovchilar orasida suyagi qotmaganlarning bo'lishi. Ya'ni, ular boshqalarni qoyil qoldirmoq niyatida avtoullov tezligini oshiradi. O'z navbatida, qolganlar karvondan ajralib qolmaslik uchun ildamlashga majbur bo'ladi. Harakat davomida xavfli manyovrlarni amalga oshiradiganlar ham yoshlar ekanini ta'kidlaydi tanishim.

Ana shunday sharoitda tasvirga olish uchun avtoullovdan gavdasini chiqarib oladigan «o'z ishining ustalari»ni-ku, gapirmasa ham bo'ladi. Nazarimizda, bu kabi qoidabuzarliklarga to'y egalari ham aybdor. Chunonchi, ular avtokarvonning yo'l harakati ishtirokchilari hayotiga xavf tug'dirishini bilishadi. Mos ravishda avtomashinalar to'y o'tadigan manzilga yetib olgunga qadar yuraklarini hovuchlab o'tiradilar. Ammo ushbu xarajatli urfdan voz kechmoqqa o'zlarida jur'at topa olishmaydi.

Bu odatga barham berishni jamoatchilik ko'magisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Bir misol: Mirzacho'l tumanining «Do'stlik» mahallasi-

da yashovchi N.J. boshqaruvidagi «Lacetti»ni to'y karvoni yo'ldan qisib chiqarishiga oz qoldi. Haydovchi holatga qo'l siltab qo'ya qolishi mumkin edi, ammo u befarqlik qilmadi va bu haqda ichki ishlar organiga xabar berdi. O'z navbatida, Jizzax shahri-ning «Ittifoq» mahallasida istiqomat qiluvchi R.X. hamda Sharof Rashidov tumanining «Yangiobod» mahallasida yashovchi K.Q. tegishli tartibda ma'muriy javobgarlikka tortilishi

ta'minlandi. Endi yigitlar yo'lda no-jo'ya harakat qilishdan oldin o'ylab ko'rishlari tayin.

Demoqchi bo'lganimiz, qonunbuzarlarga qanchalik murossasiz bo'lsak, ular soni shuncha kamayadi. Unutmaylik, bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatda yashayapmiz. U tejamkorlikni yoqtiradi.

Alijon ABDUSATTOROV,
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.

XIZMATLARDA



XAVFSIZLIK BOR JOYDA...

Yurtimizda sayyohlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda O'zbekistonning tashrif uchun xavfsiz mamlakat sifatidagi imijini oshirishga qaratilgan tizimli islohotlar olib borilmoqda. Shu bois respublikamizda turizm sohasi jadal rivojlanmoqda. Yurtimizga tashrif buyuruvchi sayyohlar soni yildan-yilga oshmoqda.

Barchamizga ma'lumki, sayyohlarning asosiy qismi havo transporti va temiryo'llar orqali keladi. Ushbu transport obyektlarida jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash masalasi doimo diqqat markazida. Jumladan, Qashqadaryo viloyati Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi xodimlari tomonidan aeroport va vokzallar hududlarida kun-u tun xizmat olib borilmoqda.

Viloyatimizda yo'lovchilar uchun xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan 2 ta aeroport mavjud. Qarshi xalqaro aeroportida mahalliy va xalqaro reyslar orqali bir oy davomida 15 mingdan ortiq yo'lovchilar kelib-ketadi. Shahrisabz aeroportida esa Toshkent – Shahrisabz – Toshkent yo'nalishida parvozlar amalga oshiriladi.

Aeroportlarning har bir kirish-chiqish nuqtasi metall detektorlar, videokuzatuv va yuzni aniqlovchi kameralar bilan

jihozlangan. Ushbu zamonaviy texnik vositalar yordamida turli xavf-xatarlarning oldi olinadi, shubhali harakatlar zudlik bilan aniqlanib, bartaraf etiladi.

Transport obyektlarida xavfsizlik faqatgina texnika yordamida emas, balki inson omili, ya'ni malakali va hushyor xodimlar faoliyati bilan to'liq ta'minlanadi. Bu borada Qarshi xalqaro aeroportida xavfsizlikni ta'minlash bo'linmasi xodimlari bilan hamkorlikda xizmat olib bormoqda. Bunda asosiy e'tibor jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishga qaratilyapti. Shu maqsadda keng qamrovli profilaktik tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Halima HAYDAROVA,
safdor.

Qashqadaryo viloyati.



ВETERАНЫ – НАША ГОРДОСТЬ

ОПЫТ, ВЫВЕРЕННЫЙ ГОДАМИ

Полковник в отставке Ильмир Хамидуллин в органах внутренних дел прослужил почти 35 лет.

Профессиональную деятельность в системе он начал в 1978 году инспектором отделения профилактики отдела уголовного розыска УВД Хорезмской области. Затем были годы плодотворной работы в инспекции по делам несовершеннолетних, оргинспекторском подразделении, возглавлял информационный центр, профилактическую службу Управления.

В 1992 году был переведен в штаб УВД, где трудился старшим инспектором, заместителем начальника, а с 1999 года возглавил оргинспекторский отдел. Герой очерка проявил исключительную работоспособность в планировании и организации деятельности подразделений, осуществлении анализа криминогенной обстановки, выработке управленче-



ских решений, оказании практической помощи территориальным ОВД. Руководство ценило организаторские способности, деловые качества Ильмира Гиндуловича. За успехи в службе в 2007 году он был награжден медалью «Шухрат».

– Главной задачей было противостоять деструктивным силам и уголовным элементам, – вспоминает ветеран. – Требования росли с каждым днем. Служили плечом к плечу с такими профессионалами, как полковники Тухталин Разакулов, Валерий Лесных,

подполковник Владимир Ли и др. Нас объединяла цель: укрепить законность и правопорядок в обществе, не допустить разгула преступности. С поставленной задачей мы справились.

...В 2010 году в звании полковника И. Хамидуллин вышел на заслуженный отдых. Но сидеть без дела – не в его характере. В течение пяти лет он возглавлял Совет ветеранов УВД области. В настоящее время Ильмир Гиндулович ведет большую общественную деятельность. Встречи с молодыми сотрудниками, учащимися Хорезмского академического лицея МВД, общеобразовательных школ проходят с его активным участием. Опыт и знания ветерана ничем не заменишь, ими он щедро делится с молодежью.

Радик ТУМΠΑРОВ,
соб. корр.

Хорезмская область.

На снимке: полковник в отставке И. Хамидуллин (слева) и майор в отставке А. Абдуллаев.

СУРХАНДАРЬИНСКАЯ ОБЛАСТЬ

В системе органов внутренних дел осуществляются целенаправленные меры по всесторонней поддержке женщин-сотрудниц, повышению их роли в коллективах, созданию условий для проявления потенциала, конкурентной среды.



ЛУЧШИЕ СРЕДИ НАС

В Сурхандарьинской области состоялся первый этап конкурса «Последовательницы Тумарис». Он проходил под девизом «Любовь к Родине – в моем сердце».

Участницы соревновались в практической стрельбе из боевого оружия, показали навыки физической подготовки, проявили профессиональные знания. Помимо основных состязаний, отдельной номинацией стал конкурс хозяек.

Организация подобных соревнований играет важную роль в развитии у сотрудниц стремления к достижению высоких целей.

Участницы, завоевавшие победу, получили путевки для участия в республиканском этапе.

Соб. корр.



ПРОТИВОДЕЙСТВИЕ ТОРГОВЛЕ ЛЮДЬМИ

ПО ТУ СТОРОНУ
ОБЕЩАНИЙ...

Предотвращен очередной случай похищения двух женщин в сети торговцев людьми.

В рамках второго этапа масштабного мероприятия «Безопасная и здоровая страна» сотрудники оперативных подразделений Главного управления внутренних дел Ташкентской области и территориального подразделения СГБ выявили и пресекли факт попытки торговли людьми.

...Жительница Кибрайского района Э. К., 1991 года рождения, вступила в сговор со своими знакомыми – гражданами Узбекистана, находящимися в Турции. С целью наживы она планировала обманым путем вывезти женщин 26 и 33 лет, проживающих в Янгиюльском районе, в Стамбул через Ташкентский международный аэропорт.

Обсуждая детали поездки, злоумышленница убеждала потенциальных жертв в том, что в стране назначения они будут легально трудоустроены и получать достойную зарплату: «Вас там встретят. Не переживайте, работу найдем быстро. Точно говорю...» Однако в действительности женщин ждала эксплуатация в сфере проституции.

План, разработанный Э. К. и ее сообщницами, сорван – она задержана. По данному факту возбуждено уголовное дело по ст. 135 Уголовного кодекса Республики Узбекистан («Торговля людьми»). Проводятся следственные действия. Принимаются меры по установлению полного круга лиц, причастных к совершению преступления.

Рафик ЕНИКЕЕВ.

ИСЛОҲОТЛАР САМАРАСИ

ОРТИҚЧА ОВОРАГАРЧИЛИКЛРСИЗ

Хоразм вилояти ИИБ ЖХХ ЙҲХБ Рўйхатдан ўтказиш ва имтиҳон олиш бўлимида кейинги вақтда фуқароларга хизмат кўрсатиш сифати тубдан яхшиланди. Илгари транспорт воситаларини рўйхатдан ўтказиш, давлат рақам белгисини олиш, техник кўрик каби жараёнларда ҳайдовчилар узун навбатларда туришга мажбур бўлишарди.

Айни кунда ушбу муаммолар тўлиқ бартараф этилди. Шу мақсадда бўлим замонавий техника воситалари билан таъминланиб, соҳа ходимлари ҳамда фуқаролар учун қулай шароитлар яратилди. Бўлимда хизмат хоналари, мўтадил иклим шароитига эга бўлган кенг ва ёруғ кутиш зали, маълум

– Автомобилимни расмийлаштириш ҳамда давлат рақам белгиси олиш учун келгандим, – дейди урганчлик Собир Қосимов. – Яратилган шароитларни кўриб, очиғи, қойил қолдим. Ходимларнинг хушмуомалалиги, тезкорлигидан мамнун бўлдим. Бир зумда ишим ҳал бўлди.



мотлар бурчаги ташкил қилиниб, юмшоқ мебель жиҳозлари билан таъминланди. Эътиборли томони, фуқаролар электрон навбат асосида қисқа фурсатларда керакли хизмат туридан фойдаланиш имкониятига эга бўлишди. Бундан ташқари, техник кўриқдан ўтказиш жараёни ҳам замонавий талабларга мувофиқ ҳолда йўлга қўйилди. Бунда тезкорлик ва аниқликни оширишга алоҳида эътибор қаратилди.

Халқимиз учун шундай қулай шароитларни яратиб берган тизим раҳбариятига миннатдорлик билдираман.

Бўлимда хизмат кўрсатишда коррупцион ҳолатларнинг олдини олиш, очиқлик ва шаффофликни таъминлаш мақсадида барча жараёнлар видеокузатув камералари назоратига олиниб, йўл ҳаракати хавфсизлиги бошқармаси ахборот-диспетчерлик қисмига интеграция қилинган. Бу хизмат ходим-



лари фаолияти устидан доимий назоратни таъминлаш билан бир қаторда, фуқароларнинг тизимга бўлган ишончини мустаҳкамлашга хизмат қилмоқда.

Энг муҳими, транспорт воситаларини рўйхатдан ўтказиш, техник кўрик, давлат рақам белгисини олиш каби барча хизматлар эндиликда ортиқча овозагарчиликларсиз, тез ва шаффоф тарзда амалга оширилмоқда.

Ўз мухбиримиз.

Хоразм вилояти.



ЖИНОЯТГА ЖАЗО МУҚАРРАР

НОҚОНУНИЙ АЙЛАНМАГА ЧЕК ҚЎЙИЛДИ

Шу кунларда республика бўйлаб «Хавфсиз ва соғлом юрт» тезкор-профилактик тадбирининг иккинчи босқичи ўтказилмоқда. Ойлик доирасида Тошкент вилояти ҳудудида жиноят ва ҳуқуқбузарликларнинг баржақ олдини олиш, жамоат тартибини сақлаш ҳамда фуқаролар хавфсизлигини таъминлашга қаратилган кенг кўламли кучайтирилган назорат тадбирлари амалга оширилмоқда.

Жумладан, вилоят ИИББ ва ДХХ ҳудудий бўлинмалари ходимлари ҳамкорлигидаги

навбатдаги тезкор тадбирда контрабанда йўли билан олиб кирилган қарийб 2 кг гиёҳвандлик воситаси аниқланиб, ноқонуний муомалага киритилишининг олди олинди. Бекобод шаҳрида яшовчи, 2001 йилда туғилган Т.А. қўшни давлатдан контрабанда йўли билан олиб келинган, 945 гр бўлган гашиш моддасини яширин жойдан олиб, таниши Х.С. га 100 АҚШ доллари эвазига топшираётган вақтида ҳар иккиси ушланди.

Яна бир ҳолатда 1995 йилда туғилган М.Р. Тожикистондан яширинча олиб кирилган, Бекобод шаҳридаги ўрмон хўжалиги ҳудудида

яшириб қўйилган 1 кг гашиш гиёҳвандлик воситасини яширилган жойдан олиб, етказиб бериш эвазига 1000 АҚШ долларини олаётган вақтида процессуал тартибда қўлга олинди. Терговга қадар текширув давомида аниқланишича, мазкур гиёҳвандлик воситаси наркокуръер томонидан яширин тарзда кўмилган ҳолатда қолдирилган.

Мазкур ҳолатлар юзасидан жиноят ишлари қўзғатилиб, тергов ҳаракатлари олиб борилмоқда.

Аброр ПОЁНОВ,
ўз мухбиримиз.

Тошкент вилояти.

«БЕЗОПАСНАЯ И ЗДОРОВАЯ СТРАНА»

ОПРЕДЕЛЕННЫ КОНКРЕТНЫЕ ЗАДАЧИ

На встрече с личным составом Учкудукского РОВД рабочей группой разьяснены суть и значение месячника, обсуждены вопросы профилактики преступности и правонарушений, улучшения криминогенной ситуации, рассмотрены необходимые для этого меры.

В районном хокимияте состоялась встреча рабочей группы с членами «махаллинских семерок». На ней были разьяснены цели и задачи профилактического мероприятия. Выступившие рассказали о наркотических и психотропных веществах, их видах и вреде, наносимом здоровью человека.

Далее члены рабочей группы побывали в Тамдынском районе. На встрече, посвященной обеспечению порядка и общественной безопас-

ного мероприятия. Подчеркнуто, что в этот период профилактические мероприятия и рейды необходимо проводить в усиленном режиме в сотрудничестве с другими органами правопорядка.

На встрече с «махаллинской семеркой» махалли имени Алишера Навои сделан акцент на мероприятиях месячника. На собрании с участием «махаллинских семерок» города Заравшана представлена информация о деятельности республиканского Call-центра. В беседе с сотрудниками поста ДПС «Караката» подчеркнута важность проявления бдительности, усиления внимания в отношении лиц, вызывающих подозрение.

В ходе оперативных мероприятий во дворе 70-летнего жителя махал-



ности, затронуты вопросы эффективности профилактических мероприятий.

В ходе беседы с «махаллинской семеркой» в МСГ «Томдибулок» проанализирована криминогенная ситуация, показатели преступности и правонарушений. Даны необходимые поручения. На встрече речь шла о предупреждении незаконного оборота наркотических средств, борьбе с нарушениями закона, представлена аналитическая информация по теме обсуждений.

Следующим пунктом стал город Заравшан. На встрече с личным составом городского отдела внутренних дел разьяснены суть и значение оперативного профилак-

ли Марик Хатырчинского района были обнаружены 5 кустов каннабиса, возделываемых хозяином дома.

В результате оперативно-профилактического мероприятия, проведенного в городе Навои, в доме жителя махалли Истиклол обнаружено вещество зеленого цвета с острым запахом, упакованное в 8 спичечных коробков. Также выявлено наличие холодного оружия – кастета.

В другом случае при досмотре содержимого карманов жителя Канимехского района обнаружено вещество, предположительно марихуана, упакованная в четыре спичечных коробка, общим весом 20,36 грамма.

Махлиё ХОЛОВА,
соб. корр.
Навийская область.

30 ИЮЛЯ – ВСЕМИРНЫЙ ДЕНЬ БОРЬБЫ С ТОРГОВЛЕЙ ЛЮДЬМИ

ГЛОБАЛЬНЫЙ ВЫЗОВ – ОБЩАЯ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ

29 июля 2025 года в столице Узбекистана состоялась знаковая международная конференция, посвященная глобальным вызовам в борьбе с торговлей людьми. Мероприятие, организованное Национальной комиссией по вопросам противодействия торговле людьми и достойного труда совместно с Международной организацией по миграции (МОМ/Агентство ООН по миграции), собрало более 110 ведущих специалистов и экспертов государственных органов, институтов гражданского общества, научных кругов, дипломатических представительств и международных организаций. Конференция приурочена к Всемирному дню борьбы с торговлей людьми.



Открытие конференции ознаменовалось выступлениями Председателя Комитета Сената по вопросам международных отношений, внешнеэкономических связей, иностранных инвестиций и туризма Алишера Агзамходжаева, первого заместителя министра внутренних дел Республики Узбекистан полковника Аюбхона Рахматуллаева, главы представительства МОМ/Агентства ООН по миграции в Узбекистане Эндрю Грея, специального представителя и координатора Организации по безопасности и сотрудничеству в Европе по вопросам противодействия торговле людьми Кари Джонстон (онлайн), заместителя регионального представителя Управления ООН по наркотикам и преступности в Афганистане, Центральной Азии, Пакистане и Иране Александра Федулова.

В своих выступлениях спикеры подчеркнули, что в условиях глобализации торговля людьми представляет собой не только угрозу для отдельных личностей, но и подрывает безопасность и стабильность всего общества. Ежегодно миллионы людей становятся жертвами этого преступления, и, к

сожалению, эти цифры продолжают расти.

Было отмечено, что Узбекистан демонстрирует системный и значительный прогресс в борьбе с этим пагубным явлением как с правовой, так и с организационной точки зрения. Особое внимание уделяется совершенствованию национального законодательства в соответствии с международными нормами. В частности, была принята новая редакция Закона «О противодействии торговле людьми», усилены меры ответственности за преступления, связанные с торговлей людьми, детским и принудительным трудом. Введена национальная система идентификации и перенаправления лиц, пострадавших от торговли людьми.

Участники конференции особо отметили вклад международных организаций, в частности, МОМ/Агентства ООН по миграции, в достигнутые успехи. Была подчеркнута необходимость последовательного продолжения взаимовыгодного сотрудничества и выдвижения новых проектов и инициатив.

В рамках конференции состоялись сессии, посвященные таким акту-

альным темам, как «Торговля людьми: современные угрозы и тенденции», «Роль международного сотрудничества в борьбе с торговлей людьми», «Значение институтов гражданского общества в борьбе с торговлей людьми и защите пострадавших».

В ходе дискуссий особое внимание было уделено растущему влиянию цифровой среды на формы торговли людьми, необходимости трансграничной координации в борьбе с этим злом, а также важной роли негосударственных организаций во всесторонней поддержке пострадавших.

На конференции не только подведены итоги национальных достижений в области борьбы с торговлей людьми, но и состоялся обмен передовым опытом. Были определены приоритетные задачи на будущее.

Проведение данной конференции в очередной раз подтвердило стремление Узбекистана к укреплению сотрудничества, совершенствованию мер по реализации Глобального договора о безопасной, упорядоченной и легальной миграции.

Азиза БОХОДИРОВА,
майор.

ТОШКЕНТНИНГ КУМУШ БЕЛБОҒИ

АНҲОР – ПОЙТАХТНИНГ СУВ АРТЕРИЯСИ

Шаҳарлар ўртасидан оқиб ўтадиган дарё ва каналлар гўё қон томирлари каби, уларнинг инфратузилмасига, ҳаёт тарзига ижобий таъсир кўрсатади. Бунга Париждаги Сена, Қоҳирадаги Нил, Киевдаги Днепр, Санкт-Петербургдаги Нева, Европанинг қатор кентларидан ўтган Дунай, Висла сингари кўплаб сув ҳавзаларини мисол қилиб келтириш мумкин. Бу сув артериялари нафақат шаҳарларнинг кўрки ҳисобланади, балки уларнинг иқтисодий ривожланиши учун ҳам муҳим манба бўлиб хизмат қилади.



Хўш, ўзимизда-чи? Тошкентнинг Анҳор каналини билмайдиганлар борми? Унинг пойтахтимиз тарихи ва бугунги кундаги ўрни, аҳамияти нечоғлик муҳим?

Анҳор канали тарихи анча узоққа бориб тақалади. У Тошкент шаҳри ва унинг атрофидаги ҳудудлар сув таъминотида муҳим роль ўйнаган. Каналнинг тарихи шаҳарнинг пайдо бўлиши ва ривожланиши билан чамбарчас боғлиқ.

Анҳор канали номининг келиб чиқиши ҳақида бир вақтнинг ўзида бир нечта тахминлар мавжуд: у узумни англаторчи «Анзор» сўзи, «ҳайдаладиган майдон» деган

маънони англаторчи «Ангор» ёки дарёни англаторчи «Анҳор» сўзи билан боғлиқ бўлиши мумкин.

Сув ҳавзасининг узунлиги 23 километрга чўзилган ва Тошкент шаҳрининг бутун марказий қисми бўйлаб ўтади. У Бўзсув суғориш каналининг бир тармоғи бўлиб, ўз навбатида, Чирчиқ дарёсидан бошланади.

XIX аср охири ва XX аср бошларида канал унинг ўнг қирғоғидаги Эски шаҳар ва чап қирғоғидаги Янги шаҳар қисми ўртасидаги чегара эди. Анҳор бўйлаб Янги шаҳардаги биринчи Черняев кўчаси, ҳозирги Мустақиллик майдони ўтган. Бундан ташқари, Анҳор канали устида Тошкентдаги биринчи замонавий кўприк қурилган ва унга «Ўрда кўприги» номи берилган. Дастлаб кўприк ёғочдан ясалган бўлиб, 1913 йилда мустаҳкам қилиб ғиштдан барпо этилган.

Анҳор канали йилнинг ҳар қандай фаслида гўзал. Тошкентликлар уни, биринчи навбатда, салқинлиги, улуғворлиги ва серсувлиги учун севадилар.

Анҳор соҳили маҳаллий аҳоли ва пойтахт меҳмонлари ора-

сида жуда машҳур. Канал соҳиларида ҳар қандай ёшдаги дам олувчиларни учратиш мумкин, чунки табиий гўзаллик ва сув юзасининг сокин оқими ҳеч кимни бефарқ қолдирмайди.


Анҳор спортчиларнинг ҳам сеvimли жойи. Канал бўйида спортнинг эшкак эшиш турлари бўйича юртимиздаги «кекса» спорт мактабларидан бири – Касаба уюшмалари федерациясининг республика ихтисослаштирилган болалар ва ўсмирлар олимпия захиралари мактаби жойлашган. Бу спорт мактабидан юқори малакали спортчилар, Осиё ўйинлари чемпионлари, Жаҳон кубоғи босқичлари ғолиб ва совриндорлари етишиб чиққан.

Таъкидлаш жоизки, Анҳор ўзбек кинематографистларининг ҳам сеvimли суратга олиш майдони бўлиб келган. Барчамизнинг қалбимиздан жой олган «Маҳаллада дув-дув гап» (1960 й.), «Нафосат» (1966 й.) фильмларида канал билан боғлиқ кўплаб таъсирчан эпизодлар бор. Жумладан, 1960 йили кинорежиссёр Шухрат Аббосов суратга олган «Маҳалла-

да дув-дув гап» фильми қаҳрамони – омбор мудири Арслон аканинг Анҳор бўйидаги чойхонада тушлик қилиб, дам олиш лавҳаси ўзбек комедиясининг классикаси саналади. Бу ролни собиқ иттифоқ халқ артисти Раҳим Пирмухамедов маҳорат билан ижро этган.

1966 йилда таниқли кинорежиссёр, Ўзбекистон халқ артисти Элёр Эшмухамедов томонидан суратга олинган «Нафосат» фильмидаги илк воқеалар ҳам Анҳор каналида бўлиб ўтади. Фильмда ўсмир болаларнинг кўприқдан сувга сакрашлари, қирғоқда дам олувчилар билан бўлиб ўтган воқеалар асносида каналнинг поэтик образи маҳорат билан тасвирланади.

Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артист Рустам Саъдуллаев суратга олиш жараёнларини эслаб, шундай дейди: «Ўша вақтда мактабда ўқирдим. Мени бир неча болалар билан бирга съёмкага



жалб қилишди. Бизлар Ўрда кўпригининг тепа қисмидаги тўғондан бошлаб канал бўйлаб сузиб борардик, ёнимизда ижарага олинган моторли қайиқда режиссёр Элёр Эшмухамедов ва оператор Дилшод Фатхуллин съёмка қилишарди. Сузиб бориш эпизодлари битта дублда олинган тасвирлар эди... Юксак маҳорат билан тасвирга олинган Анҳоримизни ҳозир ҳам соғинч билан эсламан...»

Файратулла ШУКУРОВ,
ўз мухбиримиз.

BIR QO'SHIQ TARIXI

HOFIZNI YIG'LATGAN NAVO

*Anjanliklar chaqaloqni ham
Sizlashadi anjanchasiga.
Nonday shirin, yumshoqlik bilan
So'zlashadi anjanchasiga.*

«Anjancha» qo'shig'ini tinglovchi quvnoq kayfiyatda eshitadi, ammo men buni yig'lab yozganman». She'r muallifi, shoir Sharobiddin Boltaboyev mashhur asarning yozilish tarixi haqida shunday fikrlarni bayon etdi. Uning aytishicha, «Anjancha» — sog'inch mevasi. Keling, uning qo'shiq tarixi haqidagi hikoyasiga quloq tutamiz.



— 2001-yilda onam, ustozim Muhammad Yusuf, bir yil o'tib otam ham olamdan o'tdi. Aziz insonlarimni yo'qotgach, yuragim huvillab qoldi. Poytaxtda bir o'zim qolib, bor e'tiborimni ijodga qaratdim. Ustoz Muhammad Yusuf vafotidan ikki oy avval mening bastakor Husniddin Xoliqov rahbarligidagi «9999» deb nomlangan ovoz yozish studiyasida ish boshlashimga sababchi bo'lgandi. Ozodbek Nazarbekov bilan ham aynan

shu ijod uyida hamkorlikni yo'lga qo'yganman. U bilan birgalikdagi ilk ijodiy ishimiz — «Onajonim hayot bo'lganda» qo'shig'i. O'shanda ikkimizni dardlarimiz yaqinlashtirgan. Uni ham, meni ham ona sog'inchi qiynardi.

«Anjancha» qo'shiqqa aylanishidan avval she'r sifatida ham anchagina shov-shuvga sabab bo'lgan. Ushbu she'r 2005-yilda yozilgan. O'sha vaqtda poytaxtda butunlay ijodga berilib, qishloq dunyosidan ancha uzoqlashib ketgandim. Bir kuni o'zim bilan

dan iborat 4 qismli «Anjancha» she'ri yozildi. She'r juda omadli chiqdi. Andijonga to'ylarga borsam, «Anjancha»dan bo'lsin, deya so'rashardi. Avvalroq poytaxtdagi andijonliklar davrasida, keyin Andijonda ommalashdi. Andijonliklar bilan qaysi davrada o'tirsak, Ozodbek «Sharobiddin aka, «Anjancha»ni o'qib bering» derdi.

She'rning qo'shiqqa aylanish tarixiga kelsak, 2007-yilda Ozodbek Nazarbekov «Istiqlol» san'at saroyida «Diydor shirin» nomli navbatdagi konsert dasturini namoyish etadigan bo'ldi. U bilan hamkorlikda konsert repertuarini tayyorlay boshladik. Har yilgi konsertda bitta raqsbop sho'x qo'shiq ijro etilishi kerak edi. Repititsiya kunlarining birida «disko» qo'shiqni yozish ustida izlanayotgan bastakor Nodirbek Umarov to'satdan «Bog'im bor», «Andijon polkasi» ohanglarini chalib, kompyuterimdan «Anjancha» she'rimni ochib berishimni so'radi va she'r satrlarini xirgoyi qilishga tushdi. Ozodbek xuddi shu paytda

tashqariga chiqib ketayotgan edi. Musiqani eshitib, shartta ortiga o'girildi va Nodirbekka qo'shilib kuylay boshlashdi. Qarabsizki, ikki daqiqada «Anjancha» qo'shig'i dunyoga keldi.

Konsert boshlandi. «Anjancha» ilk bor katta sahnada ijro etildi. Tomoshabinga yoqdi. Butun zal to'liqlanib raqsga tushdi. Konsertning uchinchi kuni boshlanganda poytaxtdagi ovoz yozish studiyalarida, bozorlarda «Anjancha»



jarang sochdi. Tomoshabinlarning olqishlashini aytmaysizmi? Qo'shiqni qayta-qayta so'rashardi. Ozodbek tabiatan ta'sirchan emasmi, sahnadan qaytarkan, menga qarab, «Sharobiddin aka, nimalar bo'lyapti?» dedi hayajon bilan. Chunki qo'shiqning birinchi kunlardayoq bunchalik mashhur bo'lib ketishini hech kim kutmagandi. O'shanda Ozodbekning ko'zlarida chinakam quvonch yoshlariga guvoh bo'lganman.

*O'zbeginning mehri bir daryo,
O'xshashini topmoq muammo,
Har yurtni madh qilsak-da, ammo,
So'z izlasak har qanchasiga,
O'xshamaydi anjanchasiga.*

Nigora MIROLIM qizi.



Qo'shiq videoklipining QR-kodi.

QATRA

QO'NG'IROQ

«Onam bilan gaplashganimga ham bir haftadan oshibdi. Qo'ng'iroq qilishim kerak». Ishdan horib kelgan Komilning xayoliga kelgan fikr shu bo'ldi. Erinibgina kiyimlarini almashtirarkan, ovqatlanib bo'lishi bilan qishloqqa, onasiga qo'ng'iroq qilishni diliga tugdi.

Oilasi davrasida, bir das-turxon atrofida o'tirib, farzandlarining o'qishi bilan qiziqdi. Xotini Zarnigor esa ro'zg'or kam-ko'stidan so'z ochdi, go'sht tugagani-yu



kartoshka-piyozning tagi ko'rinish qolganidan nolindi. Komil ertaga bozorlik qilib kelishini aytib, ayolini tinchlantirgandek bo'ldi.

— Dadasi, yana bir gap: o'g'lingiz bilan gaplashgandim, shu... puli tugab qolgan-ov. Menga bildirmadi, so'rasam, bor, dedi. O'zingiz qo'ng'iroq qiling. Musofir yurtda o'qiyman deb qiynalib qolmasin, bolaginam, — qistalang qildi Zarnigor.

— Kartasiga pul tashlaganimga ko'p bo'lmadi-ku! Nega tugaydi birdan? — dedi Komil bundan tutaqib.

Jahlini bosib olgach, birozdan so'ng qo'shib qo'ydi:

— Mayli, hozir qo'ng'iroq qilaman.

... Komil o'g'li bilan ancha vaqt gaplashdi, hol-ahvolini, o'qishini so'radi. Talaba o'g'il bu oy sarf-xarajatlari ko'payganini, shuning uchun yana pul kerakligini aytdi. «Bo'пти, kartangga pul tashavoraman. Faqat yaxshi o'qi, o'g'lim», deya tayinladi Komil.

U o'g'li bilan suhbatini tugab, telefonining qizil tugmasini bosdi. Shu on, qo'ng'iroq bo'ldi. Uyali telefon ekranida «Onajonim» degan yozuv o'ynar, soat millari esa tungi o'n ikkini ko'rsatardi...

Kamol OLLOYOR.

KIBERMAKONDAGI XATARLAR

QING'IR ISHNING QIYIG'I

yoxud APK kengaytmali virusli dasturlardan ehtiyot bo'ling

Keyingi vaqtda virusli ilovalar orqali odamlarning bank kartalaridagi pullarini o'g'irlash bilan bog'liq holatlar haqidagi xabarlar tez-tez qulog'imizga chalinayotgani rost. O'zganing haqqidan hazar qilmaydigan kimsalar aksariyat hollarda birovlarning ishonchiga kirib, ularning soddaligidan foydalanishmoqda.

Ichki ishlar vazirligi Tezkor qidiruv departamenti Kiberxavfsizlik markazi va uning hududiy tuzilmalari tomonidan bank kartalari bilan bog'liq qator o'g'irlik holatlarini sodir etgan jinoiy guruh aniqlandi. Ushbu guruh a'zolari telegram messenjerida android telefon qurilmalari uchun ishlab chiqilgan APK kengaytmali virusli dasturlar orqali telefon qurilmalaridagi ma'lumotlarni qo'lga kiritib, bank kartalaridagi pul mablag'larini o'g'irlik yo'li bilan qo'lga kiritgan.

– Hozirda o'n bir nafardan iborat jinoiy guruh a'zolari turli davlatlar fuqarolari ekani ma'lum bo'ldi, – deydi

Toshkent shahar IIBB Axborot texnologiyalari sohasida jinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmasi HPB inspektori, katta leytenant Diyora O'rozqulova. – Tezkor tadbirlar davomida bu kimsalar teleg-

Hozir jinoiy guruhning respublika hududidagi boshqa a'zolari va jabrlanuvchilar doirasini aniqlash bo'yicha tezkor tadbirlar davom etmoqda. Holat yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atilib, gumon qilinuv-



ram messenjerida yashirin guruh ochib, faol harakat qilganligi fosh qilindi. Guruhda virusli dasturni bilib-bilmay o'rnatgan fuqarolarning bank karta ma'lumotlari hamda bog'langan abonent raqamiga kelgan SMS-tasdiqlash kodlari mavjudligi aniqlandi. Ushbu shaxslarning telefon qurilmalari ko'zdan kechirilganida, 177 ta bank kartasidan 905 mln. so'mdan ortiq pul mablag'ini o'g'irlik yo'li bilan o'tkazma qilganliklari, jinoiy xatti-harakatlar esa «Call-markaz» orqali boshqarilganligi ma'lum bo'ldi.

chilar protsessual tartibda ushlangan.

Sirasini aytganda, kibermakon taqdim etayotgan imkoniyatlardan foydalanishda sergaklik, hushyorlik kunda kerak. Chunki imkoniyatlarining ortidan izma-iz quvib kelayotgan xatarlar ham yo'q emas. «Qing'ir ishning qiyg'i qirq yildan keyin ham chiqadi» deganlaridek, jinoyatga jazo muqarrar. Bu borada soha mutaxassislari izlanyapti, ishlayapti.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.

MA'LUMOT O'RNIDA

APK (Android Package Kit) — android qurilmalariga ilova o'rnatish va ishga tushirish uchun zarur bo'lgan barcha komponentlarni o'z ichiga olgan arxiv fayl formatidir. Ushbu fayllar o'z-o'zidan zararli bo'lmasa ham, ishonchsiz manbalardan yuklab olinganda, virus yoki troyan dasturlarini o'z ichiga olishi mumkin.

Telegramda APK fayllarini rasm yoki ilova sifatida tarqatish — firibgarlikning keng tarqalgan usullaridan biridir. Siz bunday faylni nafaqat notanish odamdan, balki akkaunti buzib kirilgan do'stingizdan ham olishingiz mumkin. Shu sababli hushyor bo'ling va yuboruvchi sizga ishonchli ko'rinsa ham, bunday fayllarni ochmang.

Agar tasodifan bunday virusli fayllarni yuklab olgan bo'lsangiz, quyidagicha yo'l tutish kerak:

1. Wi-Fi va mobil internetni o'chirib qo'ying, shunda virus ma'lumotlaringizni firibgarlarga yubora olmaydi.

2. Telefon sozlamalariga kiring, «Ilovalar» bo'limiga o'ting va yaqinda yuklab olingan shubhali dasturlarni o'chirib tashlang. Ular odatda belgisiz va g'alati nomga ega bo'ladi.

3. Internetni faqat zararli dasturni o'chirib tashlaganingizdan keyin yoqing va ijtimoiy tarmoqlardagi faol seanslarni tekshiring. Agar u yerda noma'lum qurilmalar bo'lsa, ularni ham o'chirib tashlang.

4. Bank operatsiyalaringizni tekshiring. Agar shubhali o'tkazmalar bo'lsa, darhol bankingizga qo'ng'iroq qiling — mutaxassislar kartangizni bloklab, pullaringiz xavfsizligini ta'minlaydigan yangi karta chiqarishga yordam beradi.

5. Xavfsizlik uchun bank ilovalari, pochta va ijtimoiy tarmoqlardagi parollaringizni yangilang.

Lochinbek ATOYEV,
IIV TQD Kiberxavfsizlik markazi mas'ul
xodimi, mayor.

KINOLOGIYA XIZMATI

LADA, LIZA, LORD...

Filmlarda xizmat itlarining qutqaruv ishlaridagi, jinoyatchilarni qidirib topishdagi mahoratini ko'rib qoyil qolamiz. Ammo ko'pchiligimiz buning zahirida kinologiya sohasi malakali mutaxassislarning zahmatli mehnati yotganini doim ham o'ylab ko'ravermaymiz. Ba'zilar esa bu ishni oson deb hisoblaydi.

Bugungi lavhamiz qahramoni mazkur soha vakillarining mashaqqatini juda yaxshi biladi. Chunki u qariyb 15 yildan buyon ichki ishlar organlarida faoliyat yuritayotgan bo'lsa, 2018-yildan Navoiy viloyati IIB JXX JTSSB Kinologiya bo'linmasi 1-sonli kinologiya guruhi kichik inspektor-kinolog lavozimida xizmat qilyapti.

– Veterinar shifokor Belgiya ovcharkasi bolalaganini aytib qoldi. Ularga «Lada», «Liza» va «Lord» deb laqab qo'ydik. Men ularning orasidan «Lada»ni tanlab oldim. O'zim ham uni parvarish qildim. Asta-sekin sohaga moslashtirish bo'yicha mashqlar qildirdim, – deydi safdor Ramazon Ochilov.

«Lada» qaysargina bo'lib, boshda bo'ysunmasdi. Ramazon u bilan ishlash jarayonida ko'p yillik tajribaga ega hamkasbi – safdor Jamshid G'afforovning maslahat

va tavsiyalariga quloq tutdi. O'z ustida ishladi, o'quv mashg'ulotlarida malakasini oshirdi. Hozirda 7 yoshga to'lgan «Lada» Ramazon Ochilovning yaqin ko'makchisi. Ikki kisi birgalikda ko'plab jinoyatlarni ochishga hissa qo'shdi. «Lada» yolg'on gapirib dovdarayotganlarni ham sezadi. Jinoyatchini xodimlar qo'lga olmaguncha qo'yib yubormaydi.

Navoiy shahrining «Guliston» mahallasi ahli bir xonadonda shovqin-suron, janjal bo'layotganidan, begonalar serqatnov bo'lib qolgani-dan shikoyat qilishdi. Tergov-tezkor guruhi mazkur xonadonga yetib bordi. Xonadon egasi xodimlarga mehmonlar kelganini aytib, holatni xaspo'shlashga urindi. Shu payt «Lada» Ramazonga qarab hurib, ishora berdi. Jonivor arqondan bo'shatilgach, tomorqa chetidagi chiqindilar ichiga yashirib qo'yilgan giyohvandlik vositasini topdi. Bangilar yig'iladigan



mazkur xonadon egasining kirdikorlari shu tariqa oshkor bo'ldi.

– Kinologlik faoliyati kishidan shunchaki itlarni boqish va tarbiyalashni emas, balki ularga mehr berishni, ilmiy yondashuvni, sabrni talab qiladi. Ba'zi xizmat itlarini qo'lga o'rgatish uchun 3–4 oy muddat kerak bo'lsa, ba'zilar bilan yillab ishlashga to'g'ri keladi. Ularning zotiga qarab, psixologiyasi va

jismoniy imkoniyatlari ham farqlanadi, – deydi safdor Ramazon Ochilov.


Qahramonimiz qiyinchiliklarni sabr va mehr bilan yengib o'tyapti. O'ziga birlashtirilgan xizmat itlarini qayta va qayta mashq qildirishdan erinmaydi. Erishayotgan muvaffaqiyatlarining kaliti ham shunda.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.

UMURTQALARARO DISK CHURRASI

Bu hozirgi kunda dunyo bo'ylab keng tarqalgan, kuchli og'riq bilan kechadigan kasallik bo'lib, unda fibroz halqasi – umurtqalar orasidagi disk tashqi qobig'ining butunligi buziladi. Oqibatda elastik tolalar o'rniga chandiqlik to'qimasi hosil bo'ladi. Umurtqalar orasidagi disklar dastlabki holatiga nisbatan siljiydi. Diskning yadrolari umurtqa kanali tomon bo'rtib chiqib boshlaydi. Siqilib chiqishlar ikki tomonga ham, faqat o'ng yoki chap tomonga ham bo'lishi mumkin.



Agar bu holat o'z vaqtida bartaraf etilmasa, fibroz halqasi yorilib ketadi. Yadro suyuqligi umurtqa kanaliga tushib, asab tolalarini siqib qo'yadi. Kasallik o'tkazib yuborilgan va o'z vaqtida yordam ko'rsatilmagan taqdirda, churra hatto tana a'zolarining ishlamay qolishiga sabab bo'ladi.

Ko'pincha umurtqa pog'onasi churrasi bel-dumg'aza sohasiga ta'sir qiladi. Disk churrasi ko'rinishlarining 65 foizi tananing aynan shu sohasiga to'g'ri keladi. Ko'krak va bo'yin sohasi disk churrasi nisbatan kam uchraydi.

Kasallikning kelib chiqishiga quyidagilar sabab bo'ladi:

- * bir xil holatda uzoq o'tirish yoki turish;
- * og'ir yuk ko'tarish;
- * genetik moyillik va individual anatomik xususiyatlar;
- * umurtqa shikastlanishi, sinishi, lat yeyishi;

* osteoxondroz yoki skolioz rivojlanishi;

- * me'yorga solinmagan parhez;
- * tana vaznining ortishi;
- * kam harakatli hayot tarzi;
- * modda almashinuvi buzilishi.

Dastlabki bosqichlarda, umurtqalar orasidagi disk hali yorilmagan holatlarda fizioterapiya, davolash mashqlari, manual terapiya, maxsus beldamcha (korset) taqish, traksion terapiya (tanani tortish) va dori-darmonlar qabul qilish yordamida davolash mumkin. Agar kasallik jadal ilgarilagan bo'lsa, uni jarrohlik yo'li bilan davolash maqsadga muvofiqdir.

Agar hayot tarzingiz yoki ish faoliyatingiz muntazam o'tirish va turish bilan bog'liq bo'lsa, bilingki, siz bu kasallikka chalinishi mumkin bo'lgan xavf guruhiga kirasiz. Xastalikning oldini olish uchun esa quyidagi tavsiyalarga amal qilish kerak:

* Muntazam jismoniy mashqlar, shu jumladan, umurtqa pog'onasining mushak korsetini mustahkamlash va bel mushaklarini cho'zish uchun mashqlar bajarish, imkon qadar basseynida yoki boshqa suv havzalarida suzish.

* To'g'ri ovqatlanish. Tanani yetarli miqdorda oqsil va kalsiy bilan ta'minlash. Ko'proq tvorog, kefir, tovuq go'shti iste'mol qilish.

* Vitaminli terapiya. Agar taomnangizda meva-sabzavotlar yetishmasa va siz tez-tez shamollab tursangiz, demak, organizmni vitamin bilan boyitishga bee'tiborlik qilyapsiz. Zaiflashgan tana esa umurtqa pog'onasi kasalliklari rivojlanishiga olib keladi.

* Birlashtiruvchi to'qimalar elastikligini oshirish uchun xondrotsitlar (tog'ay to'qimasining asosiy hujayralari) bilan boyitilgan

ozuqaviy qo'shimchalarni qabul qilish.

* Tana vaznini nazorat qilish. Semirib ketish umurtqa pog'onasi uchun juda xavfli. Chunki bu holat umurtqaga qo'shimcha bosim va yuk tushishiga sabab bo'ladi.

Afsuski, ba'zi bemorlar kimningdir maslahatiga tayanib, umurtqa pog'onasini bosish, uqalash va shu kabi harakatlarni bilib-bilmay bajarib yoki boshqa turli yo'llar bilan o'zini o'zi davolashga harakat qiladi. Bu kasallikning yanada zo'rayishiga olib kelishi mumkin. Unutmang, bunday holatda eng to'g'ri yo'l – shifokor ko'rigidan o'tish va mutaxassis tomonidan tavsiya etilgan davolash muolajalarini amalga oshirishdir.

Dilnoza MO'MINOVA,
IIV Markaziy poliklinikasi nevrolog shifokori.

КРУТИТЕ ПЕДАЛИ

Польза велосипедных тренировок



Велосипед дарит отличное настроение, заряжает бодростью и добавляет сил.

Велосипедные прогулки делают нас счастливее. Преимущества таких прогулок в том, что они подходят тем, кто не может заниматься активным бегом или катанием на роликах.

В зависимости от интенсивности езды на велосипеде и веса «всадника» «железного коня», за один час велосипедной прогулки можно «сжечь» от 400 до 1000 калорий. Велосипед дает хорошую нагрузку мышцам ягодиц, спины, подколенным сухожилиям, квадрицепсам.

Езда на велосипеде нормализует частоту сердечных сокращений, улучшает кровообращение. Исследователи утверждают, что такие

прогулки являются эффективным способом снижения артериального давления у людей с диабетом второго типа.

Стресс часто выступает фактором некачественного сна, нарушения режима работы и отдыха. Велосипедные прогулки, доставляя удовольствие и нагружая организм физически, помогают избавиться от переживаний.

Велосипедисты – общительные люди, для которых поездки по окрестностям – лучшее времяпровождение. Субботние и воскресные групповые велопоходы – отличный способ расширить круг общения.

Алишер ОЛЛАМОВ,
врач-физиотерапевт поликлиники
Медицинского отдела
ГУВД г. Ташкента



СЛАГАЕМЫЕ ПРОФЕССИОНАЛИЗМА

В УВД области уделяется особое внимание вопросу повышения профмастерства. На первом из трех этапов проводятся теоретические занятия. Изучаются виды и конструкция оружия, характеристики стрельбы, дальности поражения, требования безопасности. Сотрудники оттачивают мастерство рукопашного боя, постигают секреты обезвреживания и задержания преступников.

На следующем этапе теория проверяется практикой в электронном тире. Разборка и сборка оружия – непереносимое условие. Тренажерные тире имитируют реальные условия, помогают обучаться стрельбе с высокой точностью поражения.

Последний этап проходит на военном полигоне, где организуется стрельба из боевого оружия.

– В текущем году прошли трехступенчатые занятия по физической и боевой подготовке для сотрудников всех городских и районных отделов внутренних дел, – говорит инспектор по особо важным поручениям отдела физической и боевой подготовки службы духовно-просветительской работы и кадрового обеспечения УВД области капитан Илхом Ботиров.

Занятия проводятся на базе Фаришского полигона. В одном из последних участвовали около трех десятков сотрудников Баявутского РОВД. Практически все они выполнили нормативы. Физическая подготовка ведется на базе спорткомплекса «Динамо» города Гулистана. Здесь отрабатываются приемы рукопашного боя.

– Занятия проходят на высоком уровне, – рассказывает заместитель командира МООН Сырдарьинского УВД майор Зафар Примкулов. – Личный состав показывает хорошие навыки и высокое мастерство.

Абдурахмон МУСТАФОКУЛОВ,
соб. корр.

Сырдарьинская область.



МУНАЖЖИМЛАР БАШОРАТИ

(4-10 август)



Куй. Мазкур ҳафта хайрли ва ёқимли кечади. Анчадан бери ўйлаб юрган режаларингиз айнан шу даврда рўёбга чиқиши эҳтимоли юқори. Бу кимларгадир ёқмаслиги мумкин, лекин асло эътибор қаратманг.



Бузoқ. Ҳафта бошида ўз янглиш фикрларингиз асирига айланиб, баъзи инсонларнинг сизга нисбатан ноҳақ муносабатда бўлаётганидан шубҳа қилишингиз мумкин. Шунинг учун улар билан қанча кам мулоқот қилсангиз, шубҳа учун шунча кам сабаблар юзага келади.



Эгизаклар. Молиявий масалалар туфайли дўстлик ришталари бироз таранг тортиши мумкин. Масалан, сиздан қарз олган танишлар маблағни ўз вақтида қайтармайди. Ҳафта охирида нохуш вазиятга тушиб қолишингиз мумкин, ҳушёр ва огоҳ бўлинг!



Қисқичбақа. Бу даврда мустақил ва ташаббускорлик билан ҳаракат қилиш истаги кучаяди. Катта ишларга қўл уришга ошиқманг, бу борада таваққал қилмаганингиз маъқул. Хатоларга йўл қўймаслик учун шу кунларда бироз пассив бўлинг.



Арслон. Уйқу билан боғлиқ муаммолар юзага келиши мумкин. Бу борада сизга жисмоний машқлар ва очиқ ҳаводаги кечки сайр ёрдам беради. Бу ҳафта давомида ўзингизни ҳолсиз ҳис қилишингиз, ўта таъсирчан бўлиб қолишингиз мумкин. Саломатликка жиддий эътибор қаратинг.



Паризод. Мулоқот қилаётган одамларингиз доираси ўзгариши, аввалги танишларнинг баъзилари билан гапингиз бир жойдан чиқмаслиги мумкин. Аммо сиз учун қизиқарли суҳбатдошга айланадиган янги инсонлар билан танишиш эҳтимоли ҳам йўқ эмас. Интернет тармоғи орқали мулоқот қилаётганда ўта ишонувчан бўлманг, тасодифий кишиларга ўз сирингиз ва ҳаётингиз ҳақидаги маълумотларни баён этманг.



Тарози. Шу кунларда зиммангиздаги мажбуриятлар юки ортишига қарамай, барча муносабатлар омадли кечади ва иш муносабатлари яхши йўлга қўйилади. Ҳафтанинг иккинчи ярмида ҳар жабҳада эҳтиёткорлик, синчковлик талаб этилади. Шунингдек, бу даврда саломатлигингизга жиддий эътибор қаратишни унутманг.



Чаён. Бу даврда иммунитетингиз тушиб, соғлиқ билан боғлиқ муаммолар кузатилиши мумкин. Шунинг учун саломатлик профилактикаси, гигиена қоидалари ёдингизда турсин. Шу кунларда оила аъзоларингиз ёки яқин кишиларга ёрдамнинг зарур бўлиб қолади. Уларни имкон қадар қўллаб-қувватланг.



Ўқотар. Оилада муносабатлар бироз мураккаблашиши кутилмоқда. Сиз очиқ ва мurosасиз ҳаракат қилсангиз ҳам, яқинларингиз бунга тайёр бўлмайди. Уларга асосиз эътирозлар билдиришдан тийилинг, акс ҳолда, жиддий низо юзага келиши мумкин.



Тоғ эчкиси. Ҳафта бошида кутилмаган қийинчиликлар юзага келиши мумкин. Соғлиққа эътиборли бўлинг, чунки шу кунларда жароҳат олиш ёки эски хасталикларнинг қайталаниши кузатилиши мумкин. Бу даврда маиший масалаларни ҳал этиш билан овора бўласиз. Ҳафтанинг сўнги кунлари жиддий харидлар ва сармоя киритиш учун қулай пайт.



Қовға. Бу ҳафта соғлиққа жиддий эътибор қаратиб, турли механизмларни бошқаришда ўта эҳтиёткор бўлиш лозим. Ҳозирча ишдаги катта ютуқларга умид қилманг. Бу даврда ташвишланиш ва хавотир ҳисси юзага келиши мумкин. Лекин дам олиш кунлари яхши кайфият ва молиявий тушумларни ваъда қилмоқда.



Балиқ. Душанба куни режаларингиз рўйи учун катта харажат қиласиз. Бироқ ҳафта ўртасига бориб, унинг натижасини кўрасиз ва мўмай даромад соҳибига айланасиз. Шанба ва якшанба кунлари оила аъзоларингиз билан мароқли ҳордиқ чиқаринг. Саломатлигингизга янада эътиборли бўлинг.

EL-YURT TAQDIRIGA DAXLDOR



Ma'lumki, bundan 34 yil muqaddam Vatanimiz mustaqillikka erishib, dunyoda O'zbekiston nomli yangi davlat paydo bo'lganini e'lon qilgan edi. O'tgan davr mobaynida milliy davlatchiligimiz mustahkamlanib, jamiyatimizda tinchlik-osoyishtalikni saqlash, qonun ustuvorligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish, millatlararo tutuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini yaratish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirildi. Bu borada qo'lga kiritilgan yutuqlar jahon hamjamiyati tomonidan ham e'tirof etilib, davlatimiz o'ziga munosib obro' hamda o'ringa ega bo'lib kelayotganligiga barchamiz guvohmiz.

Bundan yurtimizning barcha fuqarolari quvonadi. Ayniqsa, istiqloq tengdoshlarining ko'nglidan kechayotgan shodlik, faxr-u iftixor tuyg'usi o'zgacha bo'lsa kerak. Sababi, ular mustaqillik bilan birga ulg'ayib, o'zining keng dunyoqarashi, orzu-istagi va maqsadiga ega mustaqil inson sifatida voyaga yetdi. Aynan istiqloq ularga ozod yurtning haqiqiy egasi bo'lish, uning taqdiriga daxldorlik hissi bilan yashash imkonini berdi.

Shunday yoshlardan biri Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish boshqarmasi Manzil-ma'lumotlar byurosi kichik inspektori, safdor Shiyringul Ikmetullayeva.

Lavhamiz qahramoni 1991-yil 8-martda Nukus shahrida tavallud topdi. Maktabni tugallagach, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida yurisprudensiya mutaxassisligi bo'yicha

tahsil oldi. 2016-yilda universitetni tamomlagach, bir muddat Xo'jayli tumanidagi o'rta maxsus bilim yurtlaridan birida yurist lavozimida ishladi. Ichki ishlar organlari sohasidagi dastlabki faoliyatini esa 2017-yilda boshlab, ayni kunda ham idoraga kelgan fuqarolarga xizmat doirasida maslahatlar berib, o'z vazifasini sidqildan ado etmoqda.

– Bolalik kezlarimdan Mustaqillik bayrami menga o'zgacha quvonch va zavq bag'ishlardi. Otam Sagidulla Begdullayev teatrda ishlagan bo'is, bayram konsert dasturlarini tashkil etishga mas'ullardan biri edi. Men ham otam bilan birga shahardagi amfiteatrda borib, bayramga tayyorgarlik jarayonini tomosha qilardim. Ayniqsa, harbiylarning chiqishlari menda katta taas-

surat qoldirardi. O'zimni ham ular kabi harbiy libosda ko'rishni orzu qilgan paytlarim ko'p bo'lgan. Mana, bugun mustaqillik deya atalmish bebaho ne'matni himoya qilish, asrab-avaylashga hissa qo'shayotganimdan behad baxtiyorman. El-u yurt taqdiriga daxldorlik hissi menga kuch-g'ayrat beradi, – deydi safdor Shiyringul Ikmetullayeva.

– Katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash kishidan kuchli diqqat-e'tibor, mas'uliyat, zehn talab qiladi. Chunki arzimagan xato ham kezi kelganda katta muammoga sabab bo'lishi mumkin. Ayniqsa, bu fuqaroning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarga doir ma'lumotlar bo'lsa. Safdor Sh.Ikmetullayeva bu borada o'ziga yuklatilgan vazifalarni a'lo darajada bajarib kelayotgan

xodimlardan biri. Hamkasblariga yordam berishga tayyor ekani bilan jamoada munosib obro'ga ega. Bundan tashqari, jamoat ishlarida ham faolligi bois bir necha bor rahbariyat tomonidan rag'batlantirilgan. Bir so'z bilan aytganda, u umidli yoshlarimizdan biri hisoblanadi, – deydi Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari, podpolkovnik Quaniqbay Isakov.

Ayni kunda maqolamiz qahramoni turmush o'rtog'i T.Jalabayev bilan Aysuliu, Guljamal, Abilay ismli uch nafar farzandni tarbiyalab voyaga yetkazmoqda.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.
Qoraqalpog'iston Respublikasi.

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir
polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinbosarlari
podpolkovnik
Azizjon FAYZIYEV
mayor
Aziza BOHODIROVA

Mas'ul muharrir
Erkin SATTOROV

Veb-dizaynerlar
Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Navbatchilar
Kamol OLLOYOROV
Radik TUMPAROV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Obuna masalalari bo'yicha:
71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami h/r
23402000300100001010.
Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
470010860262877031101179001
STIR 200637499.

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan
2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Manzilmiz: 100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.

Buyurtma № 1996.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3.
Hajmi – 6 bosma taboq.
44662 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:
Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxonaning manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^A-uy.